Keywords: Disabled children, inclusive education, integration into society, pedagogical-psychological methodology

СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ-ИНВАЛИДОВ

Аннотация. В этой статье вы получите подробные знания и навыки о методах использования новых педагогических и психологических методов для интеграции детей с ограниченными возможностями здоровья в общество, адаптации детей с ограниченными возможностями к повседневной жизни и повышения качества инклюзивного образования.

Ключевые слова: дети-инвалиды, инклюзивное образование, интеграция в общество, педагогика-психологическая методика

Kirish. Biz ushbu tadqiqotni muhim deb hisoblaymiz, bu mavzuda bir qator G‘arb olimlari ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borgan bo‘lsada, mamlakatimizda nogironligi mavjud bo‘lgan insonlarni jamiyat hayotigaayniqsa ta’lim sohasida moslashuvida turli qiyinchiliklar uchrayotgani bois, maqolada ular xususida so‘z yuritiladi.

Butun dunyo metodikalarini oʻrganib, tahlil qilgan holda, jamiyatimizda nogiron insonlar bilan mavjud boʻlgan muammolarni koʻrib chiqish va uni atroflicha yechimini topishga qaratilgan.

- Avvalo biz nogironlik tushunchasi fanga qachon kirib kelgan uning tarifi,maqsadlari,mohiyati haqida qisqacha taqdim etamiz.
- Ikkinchidan, Butun dunyo xalqlarining, rivojlangan davlatlarning nogironlarga boʻlgan munosabatlari va ularga koʻrsatilayotgan imkoniyatlari haqida taqdim etamiz.
- Uchunchidan, Nogiron bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishda ikkita qarama-qarshi yondashuv haqida atroflicha malumotlar taqdim etamiz.
- Toʻrtinchidan, bu muammolarni hal qilishda inklyuziv ta'limning oʻrni haqida tadqiqot texnologiyasini taqdim etamiz.

Men uchun inklyuziya - bu yordamga muhtoj va ularga yordam berishga tayyor boʻlgan insonlar jamoasidir (*Mariya Men - Ijodiy birlashish doirasi fondi asoschisi*).

Har bir bolaning qalbida koʻrinmas torlar bor, ularga mohir qoʻl bilan yondashsang , ular juda chiroyli jaranglaydilar (*V. A. Suxomlinskiy*).

Bolalik - bu inson hayotidagi eng muhim bosqich boʻlib, unda shaxsiyat shakllanishi bilan birga, asosiy ijtimoiy koʻnikmalar paydo boʻladi. Bola hayotining ijtimoiy jihati uning atrofidagilar tomonidan qabul qilinishi, tengdoshlari va kattalar dunyosi oʻrtasida oʻzaro bir-birini anglashga erishishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, bola hayotining qadri va unga alohida shaxs sifatida qarash masalasi ilk marotaba XIX-asrning oxirida Yevropada mustaqil ilmiy fanlar sifatida pediatriya, pedagogika va bolalar psixologiyasining paydo boʻlishi bilan yuzaga kelgan. Shuni esda tutish kerakki, bolalik bu "katta hayotga tayyorgarlik" bosqichi emas. Biroq, hayot shunday boʻlgani uchun u ijtimoiy va ekzistensial inqiroz bilan birga kechadi. Bu davrda, ya'ni bola oʻzini-oʻzi anglash jarayonida shaxsiyat inqirozini boshdan kechirib, oʻziga va boshqalarga: "Men kimman?", "Men qandayman?", "Nega men bundayman?", "Nega ular men bilan doʻst boʻlishni xohlamaydilar?", "Men katta boʻlganimda nima boʻladi?", "Bir kun kelib oʻlishim rostmi?". Shu oʻrinda aytish joizki, har qanday jamiyatning axloqlilik darajasi uning bolalarga nisbatan munosabati bilan belgilanadi.

Nogironlik - bu qaramlik, maxsus ehtiyojlar mavjudligi hamda ularni qondirishning nogironligi mavjud boʻlmagan odamlar qoʻllaydigan yoʻlidan farqli usuli hisoblanadi. Jamiyat va nogiron kishi oʻrtasidagi munosabatlar allegoriya (*turli optimistic qarashlar*) sifatida ifodalanishi mumkin: Barcha odamlar suvni havodan toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzlashtira oladigan jamiyatni tasavvur qiling. Bunday jamiyat uchun ichishga muhtoj boʻlgan odam nogiron boʻladi. Qulay hayotda yashayotgan vaqtimizda biz oʻzimizni hech kimga qaram emas mustaqil sifatida his qilamiz. Ammo, masalan, elektrni oʻchirib qoʻysak, bizga nima boʻladi?. Barchaning turmush tarzi elektr energiyaga bogʻliqligi sababli unga qaramlikni his qilamiz. Nogiron odam boshqalardan faqat qaramligining shakli va sifati bilan ajralib turadi. Qaysidir ma'noda, shuni ta'kidlash kerakki, "odatiylikdan farqlanish" jamiyatda yana bir tuygʻu – "qiziqish"ni uygʻotadi. Boshqa tomondan, Yevropa, AQSh va Rossiyada gʻayritabiy sirklarning mashhurligini qanday izohlash mumkin? Ushbu turdagi sirk

san'atkorlari - siam egizaklari, "gigantlar", "mittilar", "qo‘shimcha" oyoq-qo‘llaridan mahrum yoki ortiqch tana a’zosiga ega odamlar - zamonaviy sportchilar va estrada yulduzlarining shon-sharafi kabi mashhur edi. 1884-yilda xuddi shunday g‘alati sirkda ishtirok etgan "fil odam" - ingliz Jozef Merrikning hikoyasi keng tarqalgan. 50-yillarning oxiri - 60-yillarning boshlaridan. G‘arbiy Evropa va Qo‘shma Shtatlarda nogironlarning huquqlarini himoya qiluvchi ijtimoiy harakat paydo bo‘lgan ularning rahbarlari asosan nogironlarga"qulay muhit" yaratish bilan shug‘ullanishgan ya’ni: jamoat joylarida liftlar, yoritgichlar va Brayl yozuvlari bilan ta’minlash, shu bilan birga, "nogiron" atamasining o‘zi birinchi marta "imkoniyati cheklangan inson" iborasi bilan almashtirilishi taklif qilindi va 2003-yilda Birlashgan Arab Amirliklari, Jazoir, Yaman, Ummon, Iordaniya va Misrda nogironlar huquqlari uchun ijtimoiy harakat tomonidan "JASUR ODAM" atamasi taklif qilingan. 2006-yilda Mark Kuinning "Homilador Alison Lapper" asari tanlov g‘olibi bo‘lgan, haykaltaroshning modeli sakkiz oylik homilador ayol edi. Ayol qo‘lsiz tug‘ilgan, oyoqlari qisman amputant. Rivojlanishdagi bunday og‘ish "Talidomid" preparatini qo‘llashning yon ta’siri bo‘lib, "talidomid falokati" deb ataladi. "Homilador Alison Lapper" - bu deyarli besh metrli oq marmar haykal bo‘lib, u Londondagi Paralimpiya o‘yinlarining ochilishida markaziy ob'ektiga aylangan.

Inklyuziv ta’lim bu – davlat siyosati bo‘lib, nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir. “Maktablar jismoniy, aqliy, ijtimoiy, emotsional, tilidagi yoki boshqa nuqsonlaridan qat’iy nazar hamma bolalarni qabul qilishi kerak. Ularga ruhiy va jismoniy nuqsoni bor bolalar, boshpanasiz bolalar, ko‘chmanchi xalqlarga tegishli bo‘lgan bolalar, etnik yoki madaniy kamchilikni tashkil etgan oilalarning bolalari kiradi” (Harakat Rejasiga kirish 3 chi band). Inklyuziv ta’lim vazifalari: - Ta’lim muassasasida ta’limda alohida ehtiyoji bo‘lgan imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarning ta’lim olishlari uchun zarur psixologo – pedagogik, korreksion sharoitlar yaratish, ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishini, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish; - Maxsus ta’lim muassasasi o‘quvchilarini umumta’lim maktablari bilan uyg‘unlashtirgan holda faoliyat olib borish yo‘li bilan o‘quvchilarning ta’limdagi tenglik huquqini kafolatlash; - Jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, bolaning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish; 8 Imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ro‘yobga chiqarish;- Jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarga muqobil munosabatni shakllantirishdir. Inklyuziv ta’limga kiritishning asosiy tamoyillari:

1. Inklyuziv ta’limning e’tirof etilishi.
2. Inklyuziv ta’limning barcha uchun ochiq bo‘lishi tamoyili.
3. Bog‘lanishning mavjud bo‘lishi tamoyili.
4. Markazlashtirilmagan bo‘lish tamoyili.

5. Inklyuziv ta’limda kompleks yondashish tamoyili.
6. Inklyuziv ta’limda moslashuvchanlik tamoyili.
7. Malakaviylik tamoyili.

Maxsus pedagogika - jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiliklari bor bolalarning rivojlanishidagi xususiyatlarini o‘rganadigan, ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fandir. Korreksiya so‘zi lotincha-tuzatish, bartaraf etish degan so‘zlardan olingan. Maxsus pedagogika fanining maqsadi – rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ijtimoiylashuvi, ijtimoiy adaptatsiyasi va reabilitatsiyasini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni o‘rganish, ulardagi psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha ertaroq tashxis qo‘yib, bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Bola rivojlanishidagi nuqsonlar har xil bo‘ladi, ularning ba’zilari batamom bartaraf etiladi, ba’zilari bir qadar tuzatiladi, korreksiyalanadi, bilinmaydigan holga keltiriladi, boshqalari esa kompensatsiyalanadi. Masalan, bola nutqida og‘ir nuqson bo‘lsa, ilk yoshda to‘g‘ri tashkil etilgan logopedik chora-tadbirlar ta’sirida uni to‘liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson markaziy nerv sistemasidagi organik kamchiliklar natijasida paydo bo‘lgan bo‘lsa (masalan, aqli zaiflik shunday nuqson jumlasiga kiradi), uni to‘liq bartaraf etib bo‘lmasa ham, biroq kamaytirish, ko‘zga ko‘rinmaydigan, sezilmaydigan darajagacha tuzatish mumkin. Maxsus pedagogika amaliyotida yana shunday toifadagi alohida yordamga muhtoj bolalar kuzatiladiki, 6 ulardagi nuqsonni tuzatib ham, korreksiyalab ham bo‘lmaydi, masalan, tug‘ma ko‘rlik yoki karlikning ayrim turlari shular jumlasidandir. Bunda ko‘rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini esa ko‘rish analizatoriga yuklash, ya’ni kompensatsiyalash, o‘rnini bosish mumkin. Ko‘rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olti nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyatida muammosi bo‘lgan bolalar esa imoishora, daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin.

Nogironlarning sub'ektiv dunyosi boshqa odamlarning sub'ektiv dunyosidan qiymat-semantik o‘ziga xosligi va qobiliyatlari va cheklovlariga nisbatan ko‘proq keskinlik bilan ajralib turadi, chunki zamonaviy madaniyat holati odamlar dunyosini ajratishga asos bo‘ladi ya’ni nogironlar dunyosi va "sog‘lom"lar dunyosi. Shu sababli, nogironlik (va ayniqsa, bolalik davridagi nogironlik) nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyani ham talab qiladi. Nogiron bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishda ikkita qarama-qarshi yondashuv mavjud: birinchi yondashuv - bolani jamiyatdan ataylab olib tashlashni, so‘ngra uni o‘z turidan ajratib qo‘yishni o‘z ichiga oladi. Tug‘ilgandan boshlab, maxsus muassasada bo‘lgan holda, izolyatsiya qilingan nogiron kishi kerakli yordamni oladi, lekin ko‘pincha u umidsiz, o‘qimagan, foydasiz va ba’zan o‘zi va jamiyat uchun xavfli deb tan olinadi. Bunday yondashuv sharoitida bolaning ulg‘ayishi va keyingi hayotida notanish va qo‘rqinchli jamiyatga qo‘shilishga bo‘lgan har qanday urinish, qoida tariqasida, muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Ikkinchi yondashuv - ijtimoiy reabilitatsiya imkoniyatini beradi, bu nafaqat nogironni oila muhitida tarbiyalash, balki unga mavjud bo‘lgan boshlang‘ich ko‘nikmalarni o‘rgatish, ijtimoiylashuvi maktabda o‘qishni ham nazarda tutadi, va bu

orqali unga keyinchalik kasb-hunar egallash imkonini beradi. Ijtimoiy faol bola bolalikdan jamiyatga singib ketadi, tengdoshlari va kattalar orasida do‘stlar va hamfikrlar orttira oladi. Hech kimga sir emaski, nogiron bolalar ko‘pincha ajoyib matematik, musiqiy, badiiy va boshqa qobiliyatlarga ega bo‘lib, ularni faqat nogiron shaxs va faol ijtimoiy hayot ishtirokchisi sifatida tarbiyalash va idrok etib aniqlash, qo‘llab-quvvatlash orqali rivojlantirish mumkin. Horijdagi rivojlangan davlatlarda nogiron bolalar bilan ishlash bo‘yicha ma’lum me’yorlari, shakllari va metodlari shakllanib bo‘lgan. Tabiiy-ki, har bir mamlakatda aholining mazkur kategoriyasiga yordam ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular milliy xususiyatlar, ijtimoiy-iqtosodiy shart-sharoitlar, psixologik pedagogik an’analar, ma’lum ilmiy yondashuvlarga mo‘ljallanganligi kabilar asosida shakllanadi. Shu bilan birga mazkur bolalarga yordam ko‘rsatishda inobatga olish shart bo‘lgan bir nechta umumiy tendensiyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

- Birinchidan, imkoniyatlari cheklangan bolani ijtimoiy hayotga (shu bilan birga ta’lim-tarbiyaga) imkon qadar maksimal darajada integratsiyalash.
- Ikkinchidan, mazkur bolalarni oilada tarbiyalashning ustuvorligi.
- Uchinchidan, kamchiliklarni erta tashxis etish va davolashga yo‘nalganlik.
- To‘rtinchidan, har bir konkret holatda bolani reabilitatsiyasi va abilitatsiyasiga individual yondashish.

Hozirda mazkur tendensiyalarni inobatga oluvchi bir qator dasturlar yaratilmoqda hamdaishlab chiqilmoqda. Mazkur dasturlardan biri BMT tomonidan taklif etilgan – bevosita atrofdagilarga tayangan holdagi Reabilitatsiya (BATR) dasturi bo‘lib, u “barcha nogironlarni reabilitatsiyasi, imkoniyatlarini tenglashtirish va ijtimoiy integratsiyasi maqsadida amalga oshiriluvchi jamiyat rivojlanishi strategiyasidir. Uning maqsadlari: mazkur sohadagi axvolni o‘zgartirish, davlat va jamiyatni jalb etgan holda ta’limiy ishlar olib borish, barcha yordamga muhtoj nogironlarga yordam ko‘rsata oladigan tizimni ishlab chiqish”. BATRning mazmuni - nogiron, uning oilasi va bevosita atrofdagilari ba’zi asosiy reabilitatsion malakalarni o‘zlashtirgan holda reabilitatsiyani mustaqil ravishda amalga oshira olishlari mumkinligidan iborat. Albatta, bu jarayon davomida ularga sog‘liqni saqlash, ta’lim, aholini ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy muhofaza sohalarining mos muassasalari yordam ko‘rsatadi. AQShda mazkur sohada “Inklyujen” dasturi faoliyat ko‘rsatadi. Uning asosini “Reabilitatsion Akt” (№ 93-112 qonun, 1973 y.) va nogiron bolalarga ta’lim-tarbiya berish qonuni (1974-1975 y.) tashkil etib, vaqt o‘tishi bilan ularga bir qator o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritilgan. XX asrning 80 yillariga kelib AQShda nogiron insonlarni turli kategoriyalari ehtiyojlarini e’tiborga olgan holda yangi binolarni qurish va eski binolarni qayta ta’mirlash ishlari boshlandi. Bu maqsadda davlat tomonidan qo‘shimcha iqtisodiy mablag‘lar ajratilgan va shu bilan birga qabul qilingan standartlarni buzishga keskin choralar ko‘rila boshlagan. Fuqarolarda nogironlarga nisbatan munosabatni o‘zgartirish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali psixolog va boshqa mutaxassislar tomonidan birgalikda ishlab chiqilgan kompaniyalar o‘tkazilgan. Mazkur chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirishda diniy tashkilotlar ham muhim rol o‘ynagan. 11 Natijada nogiron insonlar jamiyat hayot faoliyatining barcha sohalarida ishtirok eta olish imkoniyatiga ega

bo‘lishdi va shu bilan birga sog‘lom odamlar ularga boshqa ko‘z bilan qaray boshladilar. Mamlakatning ko‘pgina joylarida nogironlar uchun ijtimoiy tashkilotlar, klublar va turli xil fondlar paydo bo‘la boshladi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish zarur-ki, AQShda maxsus ehtiyojlarga ega insonga qonun tomonidan belgilangan xizmatlarning aksariyat qismini munitsipalitet tomonidan taqdim etilgan moliyaviy mablag‘ evaziga maxsus fondlar va tashkilotlar amalga oshiradi.

Bolaning nogironligi bola o‘z-o‘zini anglashini ham boshqa bolalar tomonidan qadrli shaxs sifatida qabul qilinishini ham qiyinlashtiradi. Birgalikda o‘yin o‘rganishda qatnashayotgan vaqtida nogiron bola muqarrar ravishda "sog‘lom" muhitga nisbatan o‘zining "boshqachaligini" his qiladi. Ushbu "boshqachalik" tuyg‘usi, bolaning ongi uchun tabiiy bo‘lgan ijtimoiy, ekzistensial va shaxsiy inqirozni keltirib chiqaradi.Agar bolada nogironlik hayoti davomida yuzaga kelgan bo‘lsa ushbu holatga ko‘nikish bola uchun ham uning qarindoshlari uchun ham qiyin kechadi. Ayniqsa bolaning sog‘lom payti va hozirgi holatini solishtirilganda krizis holatidan o‘tish juda qiyin bo‘ladi.

Bularning ichida eng muhimi, bolaning ushbu inqirozni yengib o‘tishi va keyinchalik ijtimoiylashuvi uchun bolaning jismoniy reabilitatsiyasi, uning psixologik reabilitatsiyasi bilan birga bo‘lishi kerak. Nogironlik darajasiga qarab, reabilitatsiya bir necha yildan butun umrgacha davom etadi. Nogiron bolani ijtimoiy va psixologik reabilitatsiya qilish usullaridan biri uning "sog‘lom" tengdoshlari bilan birgalikda "aralash" deb ataladigan sinflarda o‘qitilishidir. INKLYUZIV TA’LIM - ta’limning bu shakli bolaga va uning sinfdoshlariga bir-biriga nisbatan o‘zaro noto‘g‘ri qarashlarni asta-sekin yengib o‘tishga imkon beradi. Uyda o‘qitish shakli ham muhim, bunda o‘qituvchining o‘quvchiga individual yondashuvi tufayli to‘liq huquqli ta’lim olish imkoniyatini beradi va ochiq darslar va sinf tadbirlarida qatnashishda bola va sinfdoshlar o‘rtasida muloqot bo‘ladi.

Bolaning tibbiy muassasada davolanish va reabilitatsiyada uzoq vaqt qolsa mashg‘ulotlar reabilitatsiya jarayoni bilan parallel ravishda amalga oshirilishi kerak. Ta’limning ushbu shakli bilan nafaqat tibbiy muassasaga birlashtirilgan maktab, balki bolaga va uning qarindoshlariga zarur yordamni ko‘rsatishga tayyor bo‘lgan pedagog-psixologning faoliyati ham katta ro‘l o‘ynaydi. O‘rta yoki oliy ma’lumotli ta’limning maqsadi - bolani ijtimoiy jarayonga jalb qilish, bolaning iste'dodi va moyilligiga mos keladigan kasbni egallashga imkon beradigan qobiliyat va ko‘nikmalarni rivojlantirish va unga voyaga yetganida moddiy mustaqillikka erishishga yordam berish.Kasbning mavjudligi, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish nogironni nafaqat izlanuvchi shaxsga aylantirishga, balki uning faoliyatiga jamiyat tomonidan berilgan bahoni ham, o‘zini o‘zi qadrlashini ham oshiradi. Mehnatkashlar jamiyati, ya’ni, "nogiron"dan butun jamiyat uchun ham, uning yaqin atrofi uchun ham, vanihoyat, o‘zi uchun ham o‘z qadr-qimmatini anglaydigan shaxsga aylanadi. Nogiron bolaning psixologik reabilitatsiyasida uning oilasi va yaqin atrofi muhim ro‘l o‘ynaydi. Mehribon oila muhiti bolaga ishonch bag‘ishlaydi va nafaqat harakat, balki muloqot qo‘rquvini yengish uchun kuch beradi, unga shaxs sifatida o‘zining so‘zsiz qiymatini his qilishiga yordam beradi. Reabilitatsiya jarayonida nafaqat bolaning o‘zi va shifokorlar jamoasi, balki bolaning oilasi faol ishtirok etishi kerak bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, Afsuski zamonaviy jamiyatda nogiron va sog‘lom insonlarni muammolariga ko‘pincha ikkiga bo‘lib "Bizniki" va "Ularniki" deb qaraymiz. Bu narsa sog‘lom insonlarni hafa qilganidek nogironlarni ham birdek kamsitadi. Bundan tashqari, bolaning atrofidagilar uni ustidan kulib undagi fikrni o‘zgartirishadi va nogironlik ularni "O‘zgacha" odam to‘liqroq qilib aytganda "Hech kim tushunmaydigan" "maxsus" munosabatlarni talab qiladigan inson sifatida o‘zini qabul qilishga majbur qiladi. Bunday ajratishlar bolada jamiyatga bo‘lgan agressiyasi kuchayadi buni natijasida bola butun dunyodan qo‘rqib qoladi.Ikkita sog‘lom bola bir xil emas va nogironlikning ikkita "holati" ham bir xil bo‘lmaydi. Shuning uchun, hatto guruh reabilitatsiyasi bilan ham, har bir bolaga individual yondashuv afzalroqdir.

Nogironlarning ijtimoiy holati muammosi yaqinda juda ko‘p sonli tadqiqotchilarning e’tiborini tortdi (V. M Astapov, O. I. Lebedinskaya, B. Yu.Shapirov, E. F Achildieva, A. A. Baranov, R. G. Ignatieva, L. K. Grachev, T. A. Dobrovolskaya, I. P. Katkova, V. V. Kuznetova, S. S. Kuchinsky, S. P. Pyapkov, G. G. Silaste, N. B. Shabalina, I. A. Shames, S. P. Shevchuk, Yu. G. Ellanskiy). Shunga qaramay bu muammoning yechimi hali ham ko‘proq tahlil va tushunishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бонхоффер Д. Жить вместе. – М.: Триада, 2000. – 446 с.
2. Достоевский Ф.М. Идиот. – М., 2006. – 236 с.
3. Скульптор Марк Куин (http://ibigdan.livejournal.com/8561845.html).
4. Гальего Рубен Давид Гонсалес. Белое на черном. М.Лимбус Пресс, 2005. – 224 с.
5. Петросян Мариам. Дом, в котором (иллюстрированное издание). – М.: Гаятри / Livebook, 2017. – 968 с.
6. Кулагина Е. В. Образование детей-инвалидов и детей с ограниченными возможностями здоровья: социально-экономический аспект. – М.: ООО «Деловые и юридические услуги “ЛексПраксис”», 2014. – 206 с.
7. Полоухина Е. А. Особенности семейного микроклимата в семьях с детьми-инвалидами // Вестник СПбГУ. – 2008. – Вып. 3. Серия 12. – С. 143–148.
8. Богданова М. А. Институт Спорта: социокультурная динамика. – Ростов н/Д: Южный федеральный университет, 2013. – 341 с.
9. Фуряева Т. В. Интегрированный подход в организаци воспитания и обучения детей дошкольного возраста с проблемами в развитии (зарубежный опыт) / Дефектология, №1 1999-10 с.
10. M. U. XAMIDOVA ”Maxsus pedogogika”, Toshkent-2018-yil 5,7-8-betlar.

FIZIKA FANINI O‘QITISHDA ILMIY TADQIQOT METODLARI VA STEM TEXNOLOGIYASI

Elibayev Abdulhamid Bahrom o‘g‘li, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistri,
e-mail: abdulhamideliboyev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqoladan fizika ta’limida yigirma birinchi asrga oid ko‘nikmalar va fizika ta’limi bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish orqali kelajakdagi tadqiqotlar uchun aniq belgilangan ta’lim va tadqiqot maqsadlarini belgilash, shuningdek, ular keyingi avlod fizika kurslariga qanday ta’sir qilishi mumkinligi va fizikani o‘qitishda qanday o‘qitilishi kerakligiga oid takliflar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, STEM, PER, konstruktivistik, kognitiv, intrapersonal, Integratsiya, metabilim, modernizatiya.

МЕТОДЫ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ И STEM-ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ ФИЗИКЕ

Аннотация. Из этой статьи, посредством анализа навыков в области физического образования XXI века и литературы по физическому образованию, мы можем определить четко определенные образовательные и исследовательские цели для будущих исследований, а также то, как они будут информировать следующее поколение курсов физики. предложения о том, что можно сделать и как этому следует учить в физике.

Ключевые слова: образование, STEM, PER, конструктивистское, когнитивное, внутриличностное, Интеграция, метанаука, модернизация.

SCIENTIFIC RESEARCH METHODS AND STEM TECHNOLOGY IN TEACHING PHYSICS

Abstract. From this article, through an analysis of twenty-first century skills in physics education and the literature on physics education, we can identify clear teaching and research goals for future research, and how they will inform the next generation of physics courses. suggestions on what can be done and how it should be taught in physics education.

Keywords: education, STEM, PER, constructivist, cognitive, intrapersonal, Integration, metascience, modernization.

Kirish. Hozirgi zamon ta’lim maqsadlari talabalarning yigirma birinchi asrning ishchi kuchi va global iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli hissa qo‘shish uchun zarur

bo‘lgan bilim va fazilatlarni egallashiga urg‘u berigan holda ishlab chiqilmoqda. Yangi ta’lim standartlari asosan fikrlash, ijodkorlik va ma’lum muammolarni hal qilish kabi yuqori darajadagi ko‘nikmalarga urg‘u beradi

Ta’lim jamiyat orqali kelajak avlod ishchi kuchini tayyorlash uchun taqdim etiladigan asosiy xizmatdir. Shu bois ta’lim maqsadlari o‘zgaruvchan dunyo talablariga javob berishi darkor. O‘quvchiga yo‘naltirilgan, faol o‘rganish kontseptsiyasi zamonaviy talabalar uchun o‘rganishni eng yaxshi ta’minlaydigan empirik tasdiqlangan o‘qitish amaliyoti sifatida tadqiqot adabiyotlarida keng qo‘llanadi [4, 37 b.]. Bu ta’limning konstruktivistik nuqtai nazaridan kelib chiqadiki, u o‘quvchi bilimni faol ravishda shakllantirishi lozim va o‘qituvchi bilim manbai emas, balki vositachi rolini o‘z zimmasiga olishi kerakligini bildiradi. Shuningdek, o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim, o‘qituvchilar va tadqiqotchilardan nafaqat samarali o‘qitish va ta’lim usullarini taqdim etish uchun, balki o‘quv amaliyotini zamonning ta’lim maqsadlariga doimiy ravishda moslashtirish uchun o‘quvchilarning ehtiyojlariga o‘z kuchlarini yo‘naltirishni talab qiladi [5, 43 b.].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Yigirma birinchi asrning ta’lim maqsadlariga mos ravishda, fizika ta’limi sohasidagi tadqiqotlar chuqur o‘rganishni targ‘ib etish va parallel ravishda yuqori darajadagi mulohaza yuritish qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha kelajakdagi ishlar uchun kontekstni ta’minlash maqsadini ham o‘z ichiga oladi. Yigirma birinchi asrdagi ko‘nikmalar va fizika ta’limi atrofidagi adabiyotlarni tahlil qilish orqali kelajakdagi tadqiqotlar uchun aniq belgilangan ta’lim va tadqiqot maqsadlari to‘plamini taklif eta olish soha kishilarining asosiy vazifalaridan biridir . Ushbu maqsadlarga quyidagilar kiradi: fizikani o‘rganishda sohaga oid tadqiqotlar; STEM fanlari bo‘ylab o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan ilmiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish; va tadqiqot orqali tasdiqlangan o‘quv dasturlari va o‘qitish va o‘qitishga yondashuvlarni tarqatish. Garchi ushbu sharh fizika ta’limi bo‘yicha tadqiqotlar (PER)ga qaratilgan bo‘lsa-da, fizika ta’limi istiqbollarini yanada keng ko‘lamda ko‘rish STEM o‘rganishning birmuncha qulaylashtirish uchun foydalidir. Shu bois, fizika fani pedagoglari o‘qitish va o‘rganish bo‘yicha doimiy ish sifatida STEM ta’limi bilan PERni uyg‘unlashtiradi [6, 73 b.].

Yigirma birinchi asrdagi ta’limni rivojlantirish tashabbuslari uchta klasterda birlashadigan keng ko‘nikmalarga qaratilgan: kognitiv, shaxslararo va shaxsiy ichki, ularning barchasi kichik o‘lchamlarning boy to‘plamini o‘z ichiga oladi.

Kognitiv – ko‘nikmada sohada chuqur o‘rganish, muntazam bo‘lmagan muammolarni hal qilish, tizimli fikrlash, tanqidiy fikrlash, hisoblash va axborot savodxonligi, mulohaza yuritish va argumentatsiya va innovatsiyalarni o‘z ichiga olgan bir nechta kompetensiyalar taklif qilinadi. Shaxslararo ko‘nikmalar – bu boshqalar bilan munosabatda bo‘lish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar, shu jumladan ijodiy va hamkorlikda ishlash, shuningdek, aniq muloqot qilish qobiliyati. Intrapersonal ko‘nikmalar, aksincha, shaxsning ichida joylashgan bo‘lib, metakognitiv fikrlash, moslashuvchanlik va o‘z-o‘zini boshqarishni o‘z ichiga oladi. Ular o‘z strategiyasini yoki yondashuvini to‘g‘rilash qobiliyatini, shuningdek, uzoq muddatli muammolarni hal qilishda va rivojlanishida barqaror muvaffaqiyat uchun muhim bo‘lgan aniq maqsadlarga jiddiy ishlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Yigirma birinchi asr koʻnikmalari uchun koʻplab tavsiflar mavjud boʻlsa-da, talabalarning ilmiy fikrlash va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish eng koʻp qayd etilgan va keng oʻrganilgan tavsifdir. Ular muammoni hal qilish, qaror qabul qilish va ijodiy fikrlashning boshqa kognitiv qobiliyatlari bilan uzviy bogʻliqdir. Natijada, ular yigirma birinchi asr koʻnikmalarini aniqlash, baholash va rivojlantirishda asosiy rol oʻynaydi.

Ilmiy fikrlash tushunchasi koʻpincha STEMda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlikni qoʻllab-quvvatlaydigan koʻnikmalar toʻplamini belgilash uchun ishlatiladi. Keng ma'noda ilmiy fikrlash tabiat dunyosi toʻgʻrisidagi tushunchalar va nazariyalarni shakllantirish va oʻzgartirishni qoʻllab-quvvatlaydigan soʻrov, tajriba, dalillarni baholash, xulosalar va dalillarni oʻz ichiga olgan fikrlar va fikrlash qobiliyatlarini oʻz ichiga oladi. Jumladan, muammoni tizimli ravishda oʻrganish, gipotezalarni shakllantirish va sinab koʻrish, oʻzgaruvchilarni manipulyatsiya qilish va ajratish, oqibatlarni kuzatish va baholash qobiliyati. Tanqidiy fikrlash va ilmiy fikrlash koʻplab xususiyatlarga ega, bunda ikkalasi ham koʻplab oʻzgaruvchan, beqaror sabablar, tahminlar mavjud boʻlgan sharoitda dalillarga asoslangan qaror qabul qilishni ta'kidlaydi. Tanqidiy fikrlashni ilmiy fikrlashni rivojlantirish orqali rivojlantirish mumkin. Bu oʻquvchilarning savolni aniqlash, farazlarni shakllantirish, tegishli ma'lumotlarni toʻplash va gipotezani mantiqiy tekshirish va baholashdan soʻng ishonchli xulosaga kelish qobiliyatini shakllantirishni oʻz ichiga oladi. Shu tarzda, ilmiy fikrlashni STEM oʻrganish kontekstida tanqidiy fikrlashning ilmiy sohasi sifatida koʻrish mumkin [5, 55 b.].

Natijalar va muhokamalar. STEMni oʻrganishda XXI asr koʻnikmalarining kognitiv jihatlari fikrlash koʻnikmalarini, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini va chuqur tushunishni rivojlantirishga qaratilgan boʻlib, bularning barchasi oʻquvchilarning bilim tuzilmalarini rivojlantirish va mazmunli ilmiy izlanishlar olib borish va muammolarni hal qilish imkonini beradi. Hozirgi kunda asosiy e'tibor STEM ta'limining asosiy komponenti boʻlgan fizika ta'limi doirasida kontseptual tushunish va muammolarni hal qilishni oʻrganishga qaratilmoqda. Fizikadagi ta'lim maqsadlari qobiliyatni rivojlantirishga, shuningdek, boshqa STEM fanlari bilan kengaytirish va integratsiyaga oʻtishga qaratilgan. Ushbu maqsadlarni qoʻllab-quvvatlaydigan oʻquv dasturlari kam boʻlsa-da, faol oʻquv xonalari va tajribalarga asoslangan laboratoriya mashgʻulotlarini ishlab chiqishda bir qator muvaffaqiyatga erishilmoqda.

Intrapersonal qobiliyatlar shaxsiy fe'l-atvorga asoslanadi va maqsadlarga erishish uchun oʻz xatti-harakatlari va his-tuygʻularini boshqarish qobiliyatini oʻz ichiga oladi. Bular, ayniqsa, tez rivojlanayotgan zamonaviy hamkorlikdagi ish muhitiga moslashish va tobora qiyinlashib borayotgan fanlararo muammolarni hal etish, yangi vazifalarni oʻrganish uchun juda muhimdir. Bularning ikkalasi ham intellektual ochiqlik, ish odob-axloqi, tashabbuskorlik va metabilimni talab etadi. Ushbu koʻnikmalar, jumladan, metakognitiv ta'lim strategiyalarini oʻz ichiga olgan, tanlov qilish va oʻrganish uchun maqsadlar qoʻyish imkoniyatini beradigan, shuningdek, kundalik hayot voqealari bilan aniq bogʻlangan koʻrsatmalar yordamida targʻib qilinishi mumkin. Biroq, shaxslararo koʻnikmalar kabi, tegishli baholashlarning mavjudligi bu sohada rivojlanishni birmuncha qiyinlashtiradi.

Ta’lim bo‘yicha tadqiqotlar va ularni amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmani ishlab chiqish va qo‘llab-quvvatlash nafaqat fizikada, balki barcha STEM sohalarida doimo muammoli holat bo‘lib kelgan. Yigirma birinchi asr ta’limi STEM bo‘yicha tadqiqotchilar va o‘qituvchilardan barqaror integratsiyalashgan STEM ta’lim muhitini yaratish maqsadida keng jamoatchilik sifatida birgalikda ishlashni talab etadi. Ushbu yangi infratuzilma orqali talabalarda chuqur tushunish va ilmiy fikrlash, shuningdek, muloqot va boshqa kognitiv bo‘lmagan qobiliyatlarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Yigirma birinchi asr uchun fizika ta’limi yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va chuqur kontseptual tushunishni rivojlantirishga qaratilgan. Biroq, ko‘pgina an’anaviy ta’lim tizimlari faqat muammoni hal qilishga katta e’tibor beradi, chunki o‘quvchilar takroriy muammolarni hal qilish amaliyoti orqali chuqur kontseptual tushunchaga ega bo‘ladilar. Ammo bu ko‘pincha samarali bo‘lmaydi.

Ta’lim jarayonida talabalar soni va mazmuniga qarab bir qator boshlang‘ich holatlar bilan sinfga kirishlari mumkin. Aniq empirik tajribaga ega bo‘lgan mavzular uchun talabalar ko‘pincha o‘zlarining g‘oyalari va tushunchalarini ishlab chiqdilar, oldindan ta’sirlanmagan mavzularda esa talabalar tegishli oldingi bilimlar va berilgan kontekstual xususiyatlar asosida real vaqtda o‘zlarining dastlabki tushunchalarini yaratishlari mumkin. Ushbu dastlabki tushunish holatlari, ularning kelib chiqishidan qat’iy nazar, odatda mutaxassislarnikidan farq qiladi. Shu sababli, o‘qitish va o‘rganishning asosiy vazifasi o‘quvchilarning dastlabki tushunchalarini ekspertal nuqtai nazaridan o‘zgartirishga yo‘naltirishdir. Talabalarning dastlabki tushunchalari cheklangan kontekstlarda izchil g‘oyalar majmuasi sifatida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, talabalar o‘quv jarayoni davomida o‘zlarining bilim tuzilmalarini o‘zgartira boshlaganlarida, ular turli darajadagi bilim integratsiyasi va uyg‘unligi bo‘lgan keng doiradagi o‘tish holatiga aylanishi mumkin [3, 64 b.].

An’anaviy o‘qitishning kamchiliklarini tan olgan holda, noto‘g‘ri tushunchalar mavjudligini aniqlashga qaratilgan diagnostik testlar bilan bir qatorda o‘quvchilarning kontseptual o‘rganishini kuchaytirish uchun turli xil tadqiqot usullariga asoslangan o‘qitish usullari ishlab chiqildi. O‘qitish usullarining aksariyat yutuqlari ma’ruza, o‘qish va laboratoriya mashg‘ulotlariga asoslangan interfaol elementlarini jalb qilishga qaratilgan. Ushbu usullarning asosiy yondashuvi talabalar bilimidagi kamchiliklarni togrilash va talabalarni kashf qilish va muhokama qilishga faol rag‘batlantirish orqali ularning bilimini yaxshilashga qaratilgan.

Integratsiyalashgan bilim tuzilmasini shakllantirish nafaqat fizikada, balki barcha STEM sohalarida ham chuqur o‘rganishga erishish uchun juda muhimdir. Biroq, hozirgi va kelajakdagi tadqiqotlar uchun ta’limning turli bosqichlarida qanday aloqalar bo‘lishi kerakligini aniqlash, shuningdek, har bir STEM intizomiy kontekstida bunday aloqalarni samarali rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan o‘qitish usullarini tushunish muhimdir. Bular birgalikda yigirma birinchi asrda ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari va sinf muhitining keyingi avlodini ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan asosiy bilimlar asosini ta’minlaydi [7, 23 b.].

Ilmiy fikrlash yigirma birinchi asr ko‘nikmalarining keng ta’kidlangan kognitiv yo‘nalishining bir qismidir. Ilmiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashlari, ochiq muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini yaxshilash mumkin.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, fizika ta’limi yoki umuman STEM ta’limi bo‘yicha kelajakdagi tadqiqot va ishlanmalar uchun bir muncha yangi g‘oyalarni taqdim etish dolzarb mavzulardan biridir. Ushbu muammoni bartaraf etishning asosiy yechimi ta’lim sifatini oshirish va o‘qitish uslublarini modernizatiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. Berdiyeva O. B., Mirsaburov M. Matematika fanini o‘qitish metodikasi moduli bo‘yichao‘quv uslubiy majmua. Termiz.; 2020.
3. Ishmuhamedov R. J., Yo‘ldoshev M. Ta’lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: - Nihol nashriyoti, 2016.
4. Nosirov M., Bozarov O., Yulchiev Sh. Fizikadan olimpiada masalalari. Toshkent: 2012.
5. Rizayev T., Ibragimov B. Fizikadan masalalar yechish metodikasi. Toshkent: 2015.
6. Chavchanidze V. V., Gelman O. Ya.Modelirovaniye v nauke i texnike, M., 1966.
7. Кузнецов А. П., Кузнецов С. П., Мельников Л. А. и др. 50 олимпиадных задач по физике. Саратов.: “Научная книга”, 2006.
8. Chertov A. G., Vorobyev A. A. Fizikadan masalalar to‘plami. Toshkent: “O‘zbekiston”,1997.
9. https://pm.piima.uz/steam-ta-lim/

ADVANTAGES OF USING 3D TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi, master's student in the Faculty Pedagogy of Chirchik State Pedagogical University,
e-mail: FayzullaevaMadina2000@gmail.com

Abstract. This article analyzed the main advantages of using 3D prototyping machines in education, as well as technological concepts and issues of using 3D technologies in the relevant fields of education. The impact of factors such as levels of cognitive development, infrastructure, technical aspects, users, level of education, types of students on these processes was studied.

Keywords: didactic materials, psychological types, cognitive processes, visual sense, auditory sense, kinetic sense, 3D education, project, 3D model.

3D TEXNOLOGIYALARDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'limda 3D prototiplash mashinalaridan foydalanishning asosiy afzalliklari, shuningdek, ta'limning tegishli sohalarida 3D texnologiyalardan foydalanishning texnologik tushunchalari va masalalari tahlil qilindi. Kognitiv rivojlanish darajalari, infratuzilma, texnik jihatlar, foydalanuvchilar, ta'lim darajasi, bu jarayonlar bo'yicha turli xil o'zlashtirish darajasiga ega talabalarga ta'siri o'rganildi.

Kalit so'zlar: didaktik materiallar, psixologik tiplar, kognitiv jarayonlar, ko'rish hissi, eshitish hissi, kinetik sezgi, 3D ta'lim, loyiha, 3D model.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ 3D ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В данной статье проанализированы основные преимущества использования машин 3D-прототипирования в образовании, а также технологические концепции и вопросы использования 3D-технологий в соответствующих областях образования. Изучено влияние на эти процессы таких факторов, как уровень когнитивного развития, инфраструктура, технические аспекты, пользователи, уровень образования, типы учащихся.

Ключевые слова: дидактические материалы, психологические типы, когнитивные процессы, зрительное чувство, слуховое чувство, кинетическое чувство, 3D-образование, проект, 3D-модель.

Introduction. In our society, the use of technology in education and teaching is recognized as an important factor for students to develop and express themselves in the surrounding environment. It should be noted that education today must establish a technological alphabet. In order to understand the possibilities of using 3D technologies in the classroom, we first focus on the importance of didactic material in the classroom and the levels of cognitive development, we try to determine the levels of activity planning with the help of digital technologies.

Material and research methods. All didactic materials should have the following characteristics:

• Arousing and attracting students' interest.

• Encourage interaction during the lesson.

• Explain abstract and complex concepts in concrete form, not just through a screen or blackboard.

• To allow observation of mechanical or physiological properties of various objects and organs.

• Reinforcement of previous knowledge.

• Connecting previously acquired knowledge with new knowledge.

• Provide students with a variety of experiences that facilitate the application of their knowledge in real-life situations.

• Development of creativity.

Depending on the goals determined by the stages of learning, the environment of using the materials also changes. It has been proven in many studies that one sense is better developed in humans than the other and that knowledge acquisition is more effective when this sense is affected.

Below are the types of learners who excel in certain senses.

Visual learners. They think in images. They speak and write quickly because they feel that there is not enough time to say or write everything that is on their mind. They can think of many things at once, but not necessarily in order. They can do many things at once. They must be seen, observed by others, and maintain eye contact with their interlocutors.

Hearing impaired students. The thought process is orderly and sequential. They think of one idea and then move it to make room for the next idea. They speak more slowly than people with a visual advantage. They do one thing at a time. To express themselves, they choose adequate words that reflect what they are thinking as accurately as possible. They need to hear, have others listen to them, and get verbal feedback.

Students with kinetic perception. They are drawn to what they are doing, despite the distractions of the environment. They like to participate in actions and thoughts. They are comfortable in perceiving their inner state, for example, their feelings. They think based on what they feel. They need and expect physical contact with others. For example, pats on the back, handshakes and hugs in the process of stimulation have a stronger effect on them.

Considering these aspects, it is appropriate to use different types of didactic materials in the educational process.

3D printing technology is a growing technology in universities, colleges and high schools. With this technology, the teaching and learning process has changed dramatically. 3D printing is a revolutionary and innovative technology that provides new ways of learning and understanding concepts that are very difficult to explain with traditional methods.[4, P. 483-488.]

3D printers are widely used in education.

In chemistry: 3D structures, molecules, organic bonding, construction of elements.

In Biology: Cell Structure.

In geography: designing models, maps. [5, P. 939-942]

In mathematics: Creating a presentation of geometric objects, shapes.

In history: Design of historical objects, design of fossils and monuments,

In sports education: the plan of a sports game, a sample of sports equipment.

In Musical Education: Musical Instrument Design.

In preschool educational institutions: educational facilities, educational manuals.

In engineering: design drawing samples.

In architecture: Building design, drawing

In Marketing: Product sample, diagram, 3D graphics

In Fashion Technology: Material Design for Apparel,

Result and analysis. Using 3D technology in the educational process offers numerous advantages that can enhance teaching and learning experiences. Here are some of the key advantages of 3D printers in education, research and development:

• It provides practical information to the participants.

• The plan of the object helps to understand the actual object.

• They can use this modern printing technology to teach architecture, visual arts, physics or chemistry.

• This 3D printing technology gives students a complete understanding of objects and structures.

• Prototype design helps students understand the topic.

• Students can use this technology to give physical appearance to their visual and imaginative information and projects.

• Enhanced Visualization: 3D technology allows students to visualize complex concepts and subjects more effectively. It provides a realistic and interactive representation of objects, structures, and phenomena, enabling students to explore and understand them from different angles. This can greatly contribute to their comprehension and retention of information [3].

• Engaging and Interactive Learning: 3D technology creates an immersive and engaging learning environment. It captures students' attention and stimulates their curiosity, making learning more enjoyable and interactive. Students can actively participate in virtual simulations and manipulations, leading to a deeper understanding of the subject matter.

• Hands-on Experiences: 3D technology enables students to have hands-on experiences, even with abstract or inaccessible concepts. They can interact with virtual objects, conduct virtual experiments, and manipulate models for a more

practical understanding of the topic. This promotes active learning and problem-solving skills development.

• Multisensory Learning: 3D technology engages multiple senses, such as sight and sound, which enhances the learning experience. By incorporating audio and visual elements, it provides a multisensory approach that caters to different learning styles and preferences. This can improve information retention and overall learning outcomes [2].

• Real-world Contextualization: 3D technology allows educators to bring real-world scenarios into the classroom. Students can explore historical sites, visit distant locations, or examine complex biological structures without leaving their seats. This contextualization provides a deeper understanding and fosters connections between theoretical knowledge and practical applications.

• Collaborative Learning: 3D technology facilitates collaborative learning experiences. Students can work together on virtual projects, share ideas, and collaborate on problem-solving tasks. This promotes teamwork, communication skills, and peer-to-peer learning.

• Accessible Learning: With advancements in technology, 3D educational content can be accessed through various devices like computers, tablets, or virtual reality headsets. This flexibility allows students to access 3D resources both in the classroom and remotely, expanding access to quality educational materials [6].

• Time and Cost Efficiency: VR and simulation-based learning can be more time and cost-effective compared to traditional experimental setups. It eliminates the need for physical resources, reduces setup time, and allows students to repeat experiments or simulations as needed, optimizing learning outcomes [7, P. 18-25].

• Access to Inaccessible or Expensive Resources: Virtual reality simulations enable access to locations, experiences, or resources that may otherwise be difficult, expensive, or impossible to reach. Students can explore historical landmarks, travel through space, or dive into the depths of the ocean, expanding their learning possibilities [1].

• Collaboration and Remote Learning: 3D simulations can support collaboration among students and educators, even when they are physically distant. VR platforms allow for real-time interaction, communication, and shared experiences, enabling students to work together on projects, experiments, or simulations regardless of their geographic location [5, P. 939-942].

It is important to note that successful integration of 3D technology in education requires proper planning, training for educators, and access to appropriate resources. Additionally, research is crucial to ensure the effectiveness and pedagogical benefits of using 3D technology in specific educational contexts.

Overall, the use of 3D technology in education holds great promise for creating engaging, interactive, and meaningful learning experiences that can enhance students' understanding and knowledge retention.

Conclusion. Research shows that the use of 3D technologies helps to organize cognitive development more effectively with the help of visual and kinetic senses of students.

References

1. Alrababah Z., Shorman S. Review of effects of the virtual reality in education. In The big data-driven digital economy: Artificial and computational intelligence. (2021). (pp. 445-459). Cham: Springer International Publishing.

2. Bogusevschi D., Bratu M., Ghergulescu I., Muntean C. H., Muntean G. M. Primary school STEM education: using 3D computer-based virtual reality and experimental laboratory simulation in a physics case study. In Ireland International Conference on Education, IPeTEL workshop, Dublin. (2018, April).

3. Bogusevschi Diana, et al. "Primary school STEM education: using 3D computer-based virtual reality and experimental laboratory simulation in a physics case study". Ireland International Conference on Education, IPeTEL workshop, Dublin. 2018.

4. Damirovich M. R., Kholikulovna M. E., Ibragimovna A. S. THE USE OF INNOVATIVE TECHNIQUES IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE. Ijodkor o 'qituvchi, 2(19), (2022). 483-488.

5. Дехканбаева М. Н., Накибов К., Мустаев Р. ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ О ПУСТЫНИВАНИЯ. Экономикаисоциум, (2019). (11), 939-942.

6. Pai S., et al. "Application of 3D printing in education". International Journal of Computer Applications Technology and Research. 2018.

7. Shin Y. S. Virtual reality simulations in web-based science education. Computer Applications in Engineering Education, 10 (1), (2002). 18-25.

TA’LIMDA O‘YINLAR: O‘YIN-KULGUDAN AQLIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHGA

Iskanderova Shirin Daniyarovna, Samarqand davlat chet tillari instituti 2-bosqich talabasi,
e-mail: shirindaniyarovna9@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar o‘yinlarining ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Garchi o‘yinlar ko‘pincha o‘yin-kulgi shakli sifatida qaralsa-da, ular kognitiv rivojlanish uchun ko‘p foyda keltiradi. o‘yin davomida bolalar muammoni hal qilish, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. Maqolada berilganidek, ota-onalar va o‘qituvchilar bolalarni har tomonlama aqliy rivojlanishga hissa qo‘shadigan turli o‘yinlarda ishtirok etishga undashlari kerak. Oxir oqibat, ushbu maqola o‘yinlarni nafaqat o‘yin-kulgi shakli sifatida, balki aqliy o‘sish va rivojlanish uchun qimmatli vosita sifatida ham ko‘rishni taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: aqliy qobiliyatlar, etakchi faoliyat, kattalar munosabatlari, kuzatuv tadqiqotlari, eksperimental tadqiqotlar, uzunlamasına tadqiqotlar, korrelyatsiya tadqiqotlari, intellektual rivojlanish.

ИГРЫ В ОБУЧЕНИИ: ОТ РАЗВЛЕЧЕНИЯ К РАЗВИТИЮ УМСТВЕННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ

Аннотация. В данной статье рассматривается значение детских игр в развитии их умственных способностей. хотя игры часто рассматриваются как форма развлечения, они также приносят множество преимуществ для когнитивного развития. играя, дети развивают такие важные навыки, как решение проблем, критическое мышление и принятие решений. В статье утверждается, что родители и педагоги должны поощрять детей к участию в разнообразных играх, способствующих целостному психическому развитию. В конечном итоге, данная статья предполагает, что игры следует рассматривать не только как форму развлечения, но и как ценный инструмент умственного роста и развития.

Ключевые слова: умственные способности, ведущая деятельность, взаимоотношения взрослых, наблюдательные исследования, экспериментальные исследования, лонгитудинальные исследования, корреляционные исследования, интеллектуальное развитие.

GAMES IN LEARNING: FROM ENTERTAINMENT TO THE DEVELOPMENT OF MENTAL SKILLS

Bu adabiyotlar va ko‘plab boshqa tadqiqotlar motivatsiya va o‘qitish psixologiyasi bo‘yicha ko‘plab fikrlar va usullarni taqdim etadi. Buyurtmangizga mos ravishda, bu adabiyotlardan foydalanib, kasb motivatsiyasini oshirishda ijtimoiy-psixologik mezonlarni aniqlash uchun yaratilgan metodlarni o‘rganishingiz mumkin. Bunda o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda o‘quv muassasalarida qo‘llanadigan texnikalar, o‘quvchilarning o‘zlarini o‘rganishga qaratilgan usullar va motivatsiya tizimlari, o‘quv muassasalarida o‘quv jarayonida o‘quvchilarga taqdim etiladigan vazifalarning tuzilishi va qo‘llanishiga oid ko‘rsatmalar kabi elementlar ko‘rsatilishi mumkin [5].

MUHOKAMA

“Ta’lim islohotlarini amalga oshirishda kasb motivatsiyasini barvaqt aniqlashning ijtimoiy-psixologik mezonlari” mavzusiga oid maqolada muhokama bo‘limi, ya’ni kasb motivatsiyasini oshirishning ijtimoiy-psixologik mezonlarini qanday aniqlash kerakligi haqida gapirilgan. Bu bo‘limda, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda foydalaniladigan usullar, motivatsiyani oshirishda qo‘llaniladigan tahlil va taqdimotlar, kasb motivatsiyasini oshirishda ijtimoiy-psixologik to‘g‘risidagi tushunchalar va ko‘rsatmalarga oid muhokamalar ko‘rsatilishi mumkin [6].

Bu mavzuga oid ko‘plab muhokamalar mavjud, shu jumladan:

1. O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda qo‘llanadigan usullar: Bu muhokamada kasb motivatsiyasini oshirish uchun qo‘llaniladiganusullar, masalan, o‘quv jarayonida o‘quvchilarga ko‘rsatiladigan muvofiqlash, qiziqish, jiddiylik, o‘quvchilar bilan ishlash, o‘quvchilarga qulay vaqt rejimi taqdim etish kabi usullar ko‘rsatilishi mumkin.
2. Motivatsiyani oshirishda qo‘llaniladigan tahlil va taqdimotlar: Bu muhokamada o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan tahlil va taqdimotlar ko‘rsatilishi mumkin. Bu tahlil va taqdimotlar o‘quvchilarning o‘zlarini o‘rganishga, o‘zlarining maqsadlarini aniqlashga, o‘zlashtirishlarini o‘zgartirishga, o‘quv muvaffaqiyatlarini baholashga yordam beradi.
3. Ijtimoiy-psixologik to‘g‘risidagi tushunchalar va ko‘rsatmalar: Bu muhokamada kasb motivatsiyasini oshirishda ijtimoiy-psixologik tushunchalar va ko‘rsatmalar ko‘rsatilishi mumkin. Misol uchun, o‘quvchilarning o‘zlarini o‘rganishga qaratilgan usullar motivatsiyani oshirishning ijtimoiy-psixologik aspektini ko‘rsatadi. O‘quvchilarning o‘zlarini o‘rganishga qaratilgan usullar o‘quvchilarning o‘zlarini yaxshi tushunishiga, o‘zlarining maqsadlarini aniqlashiga, o‘zlashtirishlarini o‘zgartirishiga, o‘quv muvaffaqiyatlarini baholashiga yordam beradi.
4. Motivatsiyani oshirishning ijtimoiy-psixologik aspektlari: Bu muhokamada motivatsiyani oshirishning ijtimoiy-psixologik aspektlari ko‘rsatilishi mumkin. Bu aspektlar o‘quvchilarning ijtimoiy muhitda o‘rganishiga, o‘quvchilarning o‘zlarini o‘rganish, o‘zlashtirish vamaqsadlari bilan bog‘liqligi, o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini o‘zgartirish va o‘z fikrlarini ifoda qilishga qaratilgan muhit,

o‘quvchilarning qarashlari, axborot tizimlari va o‘quv muassasalaridagi o‘quv jarayoni kabi ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

Muhokama bo‘limi, motivatsiyani oshirishning ijtimoiy-psixologik mezonlarini aniqlashda foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan ko‘plab ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. Bu ko‘rsatmalar o‘quvchilarning o‘zlarini o‘rganish, o‘z maqsadlarini aniqlash, o‘zlashtirishlarini o‘zgartirish, o‘quv jarayoni va o‘quv-metodik tizimlarini yangilash, o‘quvchilarni rag‘batlantirish, o‘quvchilarning o‘zlarini baholash va yordam berish, o‘quvchilarning jiddiylik va qiziqishlarini oshirish, jamiyat va o‘quv muassasalarida yaratilgan motivatsiya tizimlarini o‘zlashtirish va rivojlantirish kabi ko‘rsatmalar bo‘lishi mumkin. Muhokama bo‘limi, motivatsiyani oshirishning ijtimoiy-psixologik mezonlarini tahlil qilish uchun kerakli tushunchalar va ko‘rsatmalarni taqdim etadi [7].

NATIJALAR

Bu mavzuga oid ko‘plab natijalar mavjud, shu jumladan:

1. O‘quv muassasalarida kasb motivatsiyasini oshirish muhimligi: Bu natijada kasb motivatsiyasini oshirishning o‘quvchi uchun nechchi muhimligini ko‘rsatilgan. O‘quv muassasalarida kasb motivatsiyasini oshirishning muhimligi o‘quvchilarning o‘zlarini o‘rganishga, o‘zlashtirishga, o‘z maqsadlarini aniqlashga, o‘quv faoliyatlarida ishtirok etishga, o‘quvchilarni o‘qitishning maqsadiga qarab rag‘batlantirishga, o‘quvchi muvaffaqiyatlarini oshirishga, o‘quvchi o‘quv jarayonida rivojlanishiga va boshqa ko‘rsatmalarga qarab motivatsiyani oshirish uchun ko‘plab sabablarga ega.

2. Kasb motivatsiyasini oshirishning ijtimoiy-psixologik mezonlari: Bu natijada kasb motivatsiyasini oshirishning ijtimoiy-psixologik mezonlari ko‘rsatilgan. Shu jumladan, o‘quvchilarning o‘zlarini o‘rganishga qaratilgan usullar, o‘zlashtirish, o‘z maqsadlarini aniqlash, jiddiylik, rag‘batlantirish, qiziqish va o‘quvchilar bilan ishlash kabi usullar, o‘quv jarayonida yaratilgan yaxshi atmosfera, o‘quvchi muvaffaqiyatlari bilan rag‘batlantirish, o‘quvchilarni yordam berish va jamiyatning o‘quv jarayonida o‘ziga vazifa qilishiga qaratilgan muhit kabi ko‘rsatmalar kiritilgan.

3. Kasb motivatsiyasini oshirishning amaliy natijalari: Bu natijada kasb motivatsiyasini oshirishning amaliy natijalari ko‘rsatilgan. Bunda o‘quvchilarning o‘qishga rag‘batlanishi, o‘quv jarayonida rivojlanishi, o‘quvchi muvaffaqiyati, o‘quvchilar orasidagi aloqalari va jamiyat bilan bog‘liqlik kabi ko‘rsatmalar ko‘rsatilgan.

4. O‘quv jarayonida qo‘llaniladigan kasb motivatsiyasini oshirish usullari: Bu natijada o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan kasb motivatsiyasini oshirish usullari ko‘rsatilgan. Bu usullar o‘quvchilarning rag‘batlanishini oshirish, o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini o‘zgartirish, o‘quvchilarning o‘z maqsadlarini aniqlashini yordam berish, o‘quv muvaffaqiyatlariga qaratilgan muhit, o‘quvchilarning o‘zlarini o‘rganishga qaratilgan usullar va o‘quvchilar bilan ishlash kabi ko‘rsatmalar ko‘rsatilgan.

Natijalar bo‘limi, kasb motivatsiyasini oshirishning ijtimoiy-psixologik mezonlarini aniqlash uchun kerakli tushunchalar va ko‘rsatmalarni taqdim etadi.

Ushbu bo‘limda o‘quv muassasalarida kasb motivatsiyasini oshirishning muhimligi, kasb motivatsiyasini oshirishning ijtimoiy-psixologik mezonlari vaularning amaliy natijalari keltirilgan. Bu natijalar o‘quvchilarning o‘qishga rag‘batlanishi, o‘quv muvaffaqiyatlari, o‘quv jarayonida rivojlanishi, o‘quvchilar orasidagi aloqalari va jamiyat bilan bog‘liqlik kabi ko‘rsatmalar ko‘rsatilgan. Natijalar bo‘limi, kasb motivatsiyasini oshirishning amaliy muhimligini va o‘quvchilarni o‘rganish, o‘zlashtirish, o‘z maqsadlarini aniqlash va o‘quv faoliyatlarida ishtirok etishga rag‘batlantirish uchun qanday ko‘rsatmalar qo‘llanilishi kerakligi haqida kerakli bilimlarni taqdim etadi [8].

XULOSA

Kasb motivatsiyasini barvaqt aniqlashda talabalarning individualligi, uning qobiliyatlariga moslashtirilgan ta’lim muhiti, o‘qituvchining shaxsi, oila va jamiyatning ta’siri kabi omillar hisobga olinishi lozim. Bunday yondashuv orqali talabalarda kasbga bo‘lgan motivatsiya ortadi va ular o‘z kasb tanlovida to‘g‘ri qaror qabul qilishadi.

Natijada, ta’lim sifati va samaradorligi oshadi, talabalar o‘z imkoniyatlarini to‘la namoyon qiladi hamda kelajakda kasbini sevgan holda faoliyat ko‘rsatadi. Demak, ta’lim tizimida kasbga motivatsiyani aniqlashning psixologik mezonlariga asoslangan holda islohotlar o‘tkazish orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkoni tug‘iladi.

Xulosa qismida talabalarning individualligini, ularga mos holda tashkil etilgan ta’lim muhitini, o‘qituvchining rolini va oila hamda jamiyatning tasirini hisobga olish orqali ularning kasbga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, to‘g‘ri kasb tanlovini amalga oshirish va natijada ta’lim sifatini yaxshilash mumkinligi aytib o‘tilgan. Shuningdek, psixologik mezonlarga asoslangan holdagi islohotlar talabalarda kasbga motivatsiyani shakllantirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkonini beradi, deb xulosa qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boziyev O. va boshq. Kasb motivatsiyasini shakllantirish psixologiyasi. - T.: Fan, 2008.
2. Goyibnazarov U. G. Kasb tanlash va uning psixologik asoslari. - T.: 2005.
3. Mardonov M. Yuoshlarda kasbga motivatsiyani shakllantirish muammolari. –Toshkent, 2004.
4. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 1-jild. –T.: O‘zbekiston, 2020.
5. Ro‘ziev F. Ta’limda inson omilini hisobga olish. - Samarqand, 2006.
6. Ro‘ziev F. Ta’lim-tarbiyada shaxs insonparvarligini asosiy mezon sifatida. - Samarqand, 2007.
7. Tulenov J. T. Ta’lim va kasb tanlash psixologiyasi. - Almaty, 2010.
8. Xoliqulov N., Mirzaabdullaeva S. Kasb psixologiyasi va kasb tanlash nazariyasi asoslari. - T.: 2011.

УДК 37.013.78

TA’LIM MUASSASASI RAHBARLARINING BOSHQARUV FAOLIYATINI OLIB BORISHDA KASBIY KOMPETNETLIGINI RIVOJLANTIRISH

Xalmonov Umid Ochilovich, T. N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali mustaqil izlunuvchisi,
e-mail: umidxalmonov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim samaradorligiga erishishning dolzarb masalalari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Xususan, o‘qituvchilar faoliyati hamda ta’lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv tizimiga qo‘yilgan zamonaviy innovatsion talablar to‘g‘risida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, kompetentlik, innovatsiya, rahbar kompetentligi, metodist, strategik, yangilanish, professionallashuv.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ПРИ ОСУЩЕСТВЛЕНИИ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В статье рассматриваются актуальные вопросы достижения эффективности образования в условиях нового Узбекистана. В частности, даны рекомендации о современных инновационных требованиях, предъявляемых к системе управления педагогами и руководителями образовательных учреждений.

Ключевые слова: педагог, компетентность, инновация, лидерская компетентность, методическая, стратегическая, обновление, профессионализация.

DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF EDUCATIONAL INSTITUTION LEADERS IN CARRYING OUT MANAGEMENT ACTIVITIES

Abstract. The article discusses the current issues of achieving educational efficiency in the conditions of new Uzbekistan. In particular, recommendations have been made about the modern innovative demands placed on the management system of teachers and heads of educational institutions.

Keywords: teacher, competence, innovation, leadership competence, methodical, strategic, renewal, professionalization.

Kirish. Yangi O‘zbekiston va uning mustahkam poydevori ta’lim muassasalarida yaratilishini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev “Yangi O‘zbekistonning ostonasi maktabdan boshlanishi”ga urg‘u berdi.

Bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda raqobatbardosh ta’lim tizimini shakllantirishning eng muhim omillaridan biri zamonaviy ta’lim muhitini yaratish hisoblanadi. Zero, bunday ta’lim muhitining yaratilishi, istiqbolda yuqori intellektual salohiyatli kadrlar salmog‘ini o‘sishi, maktab o‘qituvchilarining kasbiy kompetenligi va dars sifatini yaxshilanishi hamda maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligining ortishiga xizmat qiladi. Bunday zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirish va unga yangi texnologiyalarni tatbiq etish boshqaruvning zamonaviy usullarini amalda qo‘llay oladigan rahbarlarga bog‘liq.

Dunyo miqyosida ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, YuNESKO tomonidan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim kontseptsiyasida “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” asosiy vazifa sifatida belgilangan [1].

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ilm-fan va innovatsiya sohasida davlat boshqaruvi mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini shakllantirishda shaffoflikni oshirish hamda iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlarini jadallashtirish lozimligini ko‘rsatmoqda.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Binobarin, 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son qarori, 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son farmoni, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son farmoni bilan tasdiqlangan “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi”, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni, 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda keltirilgan muhim vazifalar o‘qituvchi-pedagoglarni kasbiy rivojlantirishda, rahbarlarning innovatsion boshqaruv faoliyatini tashkiliy-metodologik asoslar orqali tadqiq qilishning dolzarbligini belgilab beradi.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ma’lumki, boshqaruv faoliyati sub’ektlar tomonidan lavozimi yo‘nalishidagi funktsiyalarini bajarishlari jarayonida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda maktab direktorlariinng boshqaruv funktsiyalarini integrativ sifatlarini tavsiflovchi xususiyatlar: maktab boshqaruvini ichki va tashqi o‘zgarishlarga moslashtirish, rahbarlik uslublaridan korporativ foydalanish, pedagogik menejment printsinlarini o‘zlashtirish va qo‘llash, boshqaruvda maktab

faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga yo‘naltirish asosida belgilashni ko‘rsatadi [2].

Boshqaruv jarayonini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun rahbar idora qilishning qaysi bo‘g‘inida bo‘lishidan qat’it nazar muayyan qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak. Rahbar o‘zining shaxsiy fazilatlari, mustahkam xarakteri, kuchli irodasi, barqaror xissiyoti barcha narsalarga va jabhalarga nisbatan maxsus qobiliyatlari bilan muayyan muassasani boshqara oladi. Fan va texnikaning rivoji, insonlarda onglilik darajasining yuksak ko‘rsatgichi, ijtimoiy tajribalarning ta’sirchan kuchi, kishilarning muayyan bilimlarga ega ekanligi rahbarning komil inson kamoloti pog‘onasiga ko‘tarilishini taqozo etadi.

Faoliyat maksadi ob’ektiv bo‘lib, o‘z o‘rnida shaxs tomonidan belgilanadi va u faoliyatning asosiy komponenti hisoblanadi. Shuningdek, faoliyat sub’ektni ma’lum bir harakatga keltiruvchi sabablarni aniqlaydi va unda aniq bir shaxsning faoliyati va maqsad ifodalanadi.

Ta’lim muassasalari rahbarlari funktsional vazifalarini amalga oshirish jarayoni ta’lim muassasasida o‘qituvchilarning barcha faoliyatlariga tegishli bo‘lgan jarayon bo‘lib, ko‘zlangan natijalarga erishishda o‘qituvchilar kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonlarini loyixalashtirish, rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, mazkur jarayon ishtirokchilariga ta’sir ko‘rsatish orqali ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

Rahbarning kompetentligi – bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas’uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish. O‘z sohasini, ishining ustasi bo‘lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish demakdir. Rahbar kompetentsiyasining shakllanishi besh bosqichdan iborat.

Rahbar kompetentsiyasining shakllanishi bosqichlari:

- Qobiliyatni aniqlash;
- tarbiyalash va shakllantirish;
- chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish);
- ishonch (mustaqil rahbarlik lavozimiga tayinlanish);
- rahbarlik cho‘qqisi.

Ta’lim muassasasi rahbarlarining asosiy funktsiyasi ta’lim muassasasi oldiga qo‘yilgan maksadlarga erishishda muassasaning hayotiy faoliyatini ta’minlash bo‘yicha boshqaruv yo‘nalishidagi masalalarning ijobiy echimini topish, hal etish hisoblanadi.

Har bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasining rahbari, har bir o‘qituvchi yangi o‘quv dasturi va ayniqsa, ta’lim standarta asosida ishlayotganligini, o‘z fani bo‘yicha o‘quvchilarga bergan bilim va ko‘nikmalarni endilikda davlat ta’lim standartlari asosida belgilanishini anglashlari, bu jarayon har bir o‘qituvchi faoliyatiga katta mas’uliyat, javobgarlik yuklanishini unutmasliklari kerak [3].

Ta’lim muassasasi rahbarining kompetentligi bir qator komponentlarni o‘z ichiga oladi. Ularni quyidagilardan iboratdir:

Bilimlilik, tashkilotchilik, izlanuvchanlik, adolatlilik, kommunikativlilik, yuksak ma’naviyatlilik, nazoratni o‘z vaqtida o‘rnatish, o‘z hissiyotlarini jilovlay olish, pedagogik deontologiya (kasbiy odob-axloq), mehnatni ilmiy asosda tashkil etish

istiqbolli, innovatsion fikrlash androgogik ma’lumot, pedagogik mahoratlilik, fidoyilik, rahbarlik, jarayonlarni loyihalashtirish, ijodkorlik, pedagogik, texnologiyadan xabardorlik, pedagogik kvalimetriyani bilish g‘oyaviy siyosiy etuklik talabchanlik dunyoqarashning kengligi o‘ziga ishonch uyg‘ota olish tashabbuskorlik, kreativlik, yuqori imidj, aktyorlik, notiqlik mahorati, innovatsion boshqaruvchanlik, qaror qabul qilish, qonun doirasida ishlash, mantiqiy fikrlash, jamoani ergashtira olish, sabr-taqotlilik, vatanparvarlik, printsipiallik, etakchilik qobiliyati, sadoqatlilik, kasbiy reflektsiya, mehnatga ijodiy munosabat, g‘oyalilik, bir so‘zlilik, yangiliklarni tez qabul qilish, natijani oldindan ko‘rish, mas’uliyatlilik, qattiyatlilik.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). Boshqaruv faoliyati oldindan belgilangan xatti-harakatlar majmuasi, shuningdek, boshqaruv jarayoni bosqichlari sifatida ta’lim muassasasi rahbarining maqsadga yo‘naltirilgan funktsiyalarining strukturasi boshqaruv predmetlari orkali belgilanadi. Demak, boshqaruv o‘ziga xos hususiyatlarga ega bo‘lib, ular maqsadga erishishda harakatlar izchilligi bilan belgilanadi. Bu jihatlar o‘z-o‘zidan maqsadga ko‘ra aniqlanmaydi, balki maqsadga erishishdagi shart-sharoitlar orqali belgilanadi.

Boshqaruv yo‘nalishida zaruriy tushuncha va ko‘nikmalarni ta’lim muassasalari rahbarlari, pedagogik xodimlarda shakllantirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faoliyatlarini takomillashtirish va o‘quv jarayonining natijaviyligi hisoblangan boshqaruv samaradorligini ta’minlashning eng asosiy shartlaridan biri hisoblangan hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish zaruriyatini belgilaydi.

XX asrning 60-80 yillarida tizimli yondashuvning negizini tashkiliy xatti-harakatlar tashkil etgan. Xar qanday tashkilotning boshqarish ob’ekta va sub’ektini ayrim xodim va xodimlar guruhi tashkil etadi. Ularning harakatlari bir tomondan tashkilotning ichki va tashqi muhitiga, unga ta’sir etuvchi omillarga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan tashkilotning muvaffaqiyati ana shu ijtimoiy guruhring xatti-harakatiga bog‘liq bhladi.

Demak, tashkilotlarni boshqarishda faqat iqtisodiy omillarni nazarda tutib faoliyat olib borish bir tomonlama yondashishga olib kelgan.

Ya’ni, ijtimoiy omillarni hisobga olmaslik bir butunlik printsipini buzilishiga sabab bo‘lgan. Shuning uchun ma’muriy boshqaruvda tashkiliy xatti-harakatlarni inobatga olish unga bir butun tizim sifatida qarashga olib kelgan. Ma’muriy boshkaruvda tizimli yondashuv birinchi bo‘lib AQShda shakllangan, so‘ngra Evropa davlatlariga tarqalgan. Ushbu yo‘nalishni tadqiq etgan olimlar qatoriga T. Levitt, Ch. Barnard, G. Saymon, F. Selznik, J.Koll, L.Bertalanfi va boshqalarni kiritish mumkin [4].

Ta’lim samaradorligining ta’minlanmaslik sabablaridan asosiysi – maktab rahbarlarining ta’lim muassasasini boshqarish malakasining etarli emasligi oqibatidadir. Bu bora hududiy ta’lim boshqaruv organlarining ishlari talablar darajasida tashkil etilmagan. Maktab o‘qituvchilariga metodik yordam berish maqsadida qabul qilingan metodistlar o‘z vazifa va yuklamalarini to‘la-to‘kis amalga oshirmayaptilar. Nomiga metodistu aslida esa mutlaqo boshqa topshiriqlarni bajarish bilan ovora.

Qolaversa, maktab rahbarlarining ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlash yuzasidan qat’iy nazoratlari, ta’lim muassasasini zamonaviy boshqarishga qo‘yilgan talablar asosida faoliyat olib borishlari zarurligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar va ta’lim sohasidagi islohotlar jarayonida amalga oshirilayotgan yangiliklarga maktab faolyatini muvofiqlashtirib borishda ta’lim muassasasi rahbarlari joriy rejalar bilan cheklanib qolmay, o‘z muassasalari kelajagi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda “strategik” uzoq (besh, o‘n va undan ko‘proq) muddatlarga mo‘ljallangan istiqbol rejalarni tuzish hamda ular asosida faoliyat olib borishlari zarur.

Amaliyotda “yangilik”, “yangilanish”, “yangilik kiritish” tushunchalari ko‘pincha tenglashtiriladi, lekin ularning o‘rtasida ba’zi bir farqlar mavjud. Yangilik – yangi tartib, yangi uslub, yangi metod, yangi ixtirolar bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi asosan innovatsion jarayonlarda rivojlanadi. Ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo‘nalishlarida tashkil etiladigan innovatsion jarayonlarning samarali boshqarish, mazkur jarayonga o‘qituvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish hamda ko‘zlangan natijalarga erishishda innovatsion jarayonlarni oldindan loyihalashtirish va bunga innovatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur bo‘ladi.

Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko‘rinishi sifatida tushuniladi [5].

Bugun jamiyat uzluksiz ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari oldida yuksak kechiktirib bo‘lmaydigan talablarni qo‘ymoqda. Ana shunday talablarga javob bera oladigan kadrlarga sharoitlar yaratish va ularni qo‘llab-quvvatlashni joriy etish lozim.

O‘qituvchilarni muammoga doir masala yuzasidan qisqa muddatlarda qayta tayyorlashni tashkil etish va rahbarlar tomonidan tizimli va uzluksiz nazorat o‘rnatish, talab qilish, zamonga mos ravishda yangilikni o‘zlashtirishni istamayotgan o‘qituvchilardan xalos bo‘lish vaqti etdi, deb o‘ylaymiz. Ta’lim muassasalari rahbarlarining pedagogik jamoani innovatsion talabalar asosida boshqara olish qobiliyatlarini aniqlash va bu sohadagi tashkiliypedagogik qarorlar qabul qilishni orqaga surmaslik muhimdir.

Jahonda ta’lim, jumladan, maktab rahbarlari boshqaruv faoliyati yo‘nalishlari, ularning kasbiy kompetentliligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarda maktab faoliyati boshqaruvining natijasi qay darajada samarador ekanligiga alohida urg‘u berilgan holda, asosiy e’tibor rahbarlarning boshqaruv faoliyati sifat va samaradorligini oshirishga qaratilmoqda. Ta’lim tashkilotini ilmiy-metodik boshqarish asoslari, faoliyatni ob’ektiv baholash, tashkilot reglamenti va uning ichki tartib-qoidalariga vazifalar taqsimotini muvofiqlashtirish, tashkilot rahbarlarining kasbiy kompetentliligini uzluksiz rivojlantirib borish jarayonlarini innovatsion tuzilishga ega bo‘lgan murakkab pedagogik tizim sifatida loyihalashtirish va uning mazmunini takomillashtirish hamda boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish jarayonlariga strategik va tizimli yondashuv texnologiyalarini tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bugungi kundagi tadqiqotlar eng dolzarb ilmiy-amaliy muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ushbu izlanishlar zamonaviy rahbar kadrlarni shakllantirish orqali boshqaruv sohasini mukammallashtirishga qaratilgandir.

Jamiyatdagi kasblar va mehnat turlari ixtisoslashib borgan sari bugungi kun mutaxassislariga qo‘yilayotgan talablar ham o‘sib borayotgan bir paytda, zamonaviy rahbar professionallashuvining alohida mavzuga aylanishi tabiiy.

Zamonaviy rahbarning kompetentsiyalarni shakllantirish nafaqat an’analar bilan, balki yangi ta’lim texnologiyalarini joriy etish bilan birga, yangi faoliyatni samarali amalga oshirishni emas, balki uni loyihalashtirishni ta’minlaydigan innovatsion shakllar, usul va vositalardan foydalangan holda amalga oshirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

2. Djo‘raev R. X., Turgunov S. T. “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari”. - Toshkent: “Fan”, 2006. 29-32-bet.

3. Yo‘ldoshev J. F. “Ta’lim yangilanish yo‘lida”. - Toshkent: “O‘qituvchi”, 2000. 41-bet

4. To‘xtaboev A. “Ma’muriy menejment”. - Toshkent: ”Moliya”, 2003. 13-bet.

5. Azizxodjaeva N. N. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat”. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDPU, 2003. – 139-b.

6. Slastenin. V. A. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya. M.: “Prosvesheniya”, 2004.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA SHAXMAT O‘RGATISH JARAYONIDA SHAXSIY SIFATLARINI AHAMIYATI VA MANTIQIY FIKIRLASH

Xoliqov Umidjon Ko‘chqarovich, Guliston davlat instituti “Pedagogika”kafedrasi katta o‘qituvchi,
e-mail: shax75.75@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada yosh avlodni ta’lim tarbiya olishda shaxmat o‘yini orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shaxsiy sifat va mantiqiy fikrlashlarini shakllantirishni ko‘p jihatdan o‘yinchining individual xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, xotira, diqqat va fikrlash kabi ruhiy jarayonlarni dolzarb ilmiy-amaliy masala sifati o‘rganilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxmatni o‘rganish salohiyatini to‘liq baholash uchun beshta yo‘nalish bo‘yicha shaxmat o‘yiniga qobiliyatini baholash metodikasi taklif etiladi: psixologik sifatlar, jismoniy sifatlar, aqliy sifatlar, ijodiy va ma’naviy-axloqiy fazilatlar.

Kalit so‘zlar: diqqatni jamlash, idrok,obro‘zli tafakkur, mantiqiy xotira, shaxmat, shaxsiy sifatlar, mantiqiy fikrlash, intelektual bilish darajasi, shaxmat uyini, qunt matonat, qatiyatlilik, bardoshlilik, o‘z o‘zini taxlil qilish, sabr toqatlilik.

ЗНАЧЕНИЕ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ И ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ШАХМАТАМ

Аннотация. В статье формирование личностных качеств и логического мышления у учащихся начальных классов посредством игры в шахматы в воспитании подрастающего поколения во многом зависит от индивидуальных особенностей игрока, а также таких психических процессов, как память, внимание и мышление изучается как актуальная научно-практическая проблема.

Для полноценной оценки потенциала учащихся начальных классов к обучению шахматам предлагается методика оценки способности к игре в шахматы по 5 направлениям: психологический потенциал, физические качества, психические качества, творческие и духовно-нравственные качества.

Ключевые слова: концентрация, восприятие, логическое мышление, логическая память, шахматы, личностные качества, логическое мышление, интеллектуальный уровень, шахматный домик, настойчивость, настойчивость, выносливость, самоанализ, терпение, терпимость.

SIGNIFICANCE OF PERSONAL QUALITIES AND LOGICAL THINKING OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN THE PROCESS OF CHESS TEACHING

Abstract. In the article, the formation of personal qualities and logical thinking in elementary school students through the game of chess in the education of the young generation depends to a large extent on the individual characteristics of the player, and mental processes such as memory, attention and thinking. studied as an actual scientific-practical issue.

In order to fully assess the potential of elementary school students to learn chess, a methodology for assessing the ability to play chess in 5 areas is proposed: psychological potential, physical qualities, mental qualities, creative and spiritual-moral. qualities.

Keywords: concentration, perception, logical thinking, logical memory, chess, personal qualities, logical thinking, intellectual level, chess house, perseverance, perseverance, endurance, self-analysis, patience tolerance

Kirish. O‘zbekistonda yorqin shaxmat yulduzlari, jahon chempionlari etishib chiqayotganligi bejiz emas. Yurtdoshlarimizning dunyo shaxmat olamini tez-tez larzaga solayotganini ham tasodif deb bo‘lmaydi. Zotan, Hindiston, Xitoy kabi davlatlar qatorida O‘zbekiston ham shaxmat vatani degan sharafli nomga asosli ravishda davogarlik qila oladi. Afrosiyobda yodgorligida fil suyagidan yasalgan shaxmat haykalchalarining to‘liq to‘plamiga duch kelingani, qadimiy Dalvarzintepa hududida Kushon imperiyasi davriga oid ikkita noyob shaxmat haykalchasi topilgani zaminimizda shaxmat o‘yini eramizdan oldingi purdardam mavjud bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Shaxmat bolaning mantiqiy fikirlash va shaxsiy sifatlarni shaklantirishga yordam beradigan pedagogik vositalardan biri deb hisoblasak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ko‘plab psixolog va pedagog olimlarning fikriga ko‘ra, shaxmat bolaning shaxsiy sifatlarini shaklantirishga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pgina ilg‘or mamlakatlarda shaxmat o‘yini maktab ta’limining boshlang‘ich bosqichiga kiritilgan va o‘quvchilarning ijodiy shaklantishi uchun eng faol vositalardan biri sifatida qo‘llanib kelmoqda. Ta’kidlash joizki, o‘quvchilarni shaxmat bilan shug‘ulanishi ularga boshqa o‘quv fanlarini o‘zlashtirishda ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlarida isbotlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasida shaxmatni shaklantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3906-son va 2021-yil 14-yanvardagi “Shaxmatni yanada shaklantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4954-son [1] Qarorlarida «... umumiy o‘rta ta’lim maktablarida shaxmatga o‘qitishni bosqichma-bosqich qamrab olish, yuqori malakali murabbiy kadrlarni tayyorlash, shaxmat klublari va umumiy o‘rta ta’lim maktablari shaxmat sinflarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash”, “... tegishli 1000 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabida 2, 3 va 4-sinf o‘quvchilarini “Jismoniy tarbiya” fani doirasida 18 soatlik reja asosida shaxmatga

o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi hamda ularga metodik yordam” ko‘rsatilishi nazarda tutilgan.

Ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, shaxmat bilan doimiy shug‘ullanayotgan bolalar maktabda, ayniqsa, tabiiy fanlar bo‘yicha o‘zlashtirishi yuqori bo‘ladi, uning kelajakda maktabdagi yutuqlari yaxshi ko‘rsatkichlaridan biri, bo‘lib:

- mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shaklantirish, ko‘p o‘tishli o‘yinlar mantiq, xotira va tasavvurni rivojlantiradi. O‘yin davomida bolaga qat’iyatlilik, maqsadga intilish, diqqatli bo‘lish o‘qtiriladi;

- mantiqiy qaror qabul qilish shakllanadi. O‘yin tushunchasi kichik yoshdagi bolada o‘z vaqtida qaror qabul qilish va unga to‘liq javobgar bo‘lish hamda maqsadga qarab diqqatni tez jamlay olish va unga erishish yo‘llarini topa olish kabi shaxsiy sifatlarni metodik jihatdan shakllantiradi;

- ular muvaffaqiyatsizliklarga oqilona yondashish shaxsiy sifatlarini shakllantiradi. Bu nafaqat to‘g‘ri xulosalar bilan xatolar ustida puxta ishlash, balki kelajakda ularni maqsadga qarab qo‘llash shaxsiy sifatlarni ham anglatadi. Bularning barchasi aql-zakovatni va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, shuningdek ijodkorlikni kuchaytiradi;

- strategik va tizimli fikrlash chegaralarini kengaytirish. Shaxmat vaziyatni tahlil qilish va xayolda yutuqli mantiqiy zanjirlarni ishlab chiqishni o‘rgatadi [12].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda boshlang‘ich ta’limning turli jihatlari B.Abdullaeva, B.Adizov, G.Akramova, G.Boymurodova, N.Dilova, G.Najmiddinova, X.Nazarova, R.Nurjanova, R.Safarova, N.Tosheva, Z.Xolmatova, G.Hasanova, O.Karxonova va Sh.Toshpulatovalar tomonidan faol qo‘llanilgan. Ta’limda shaxmat o‘yinlarini tatbiq etishda M.Muxiddinov, A.Mazmudov, M.Xaylaev, R.Qosimjonov, Eson Ali, H.Turdialiyev, B.Xolmirzaev va boshqalarning shaxmat nazariyasi va amaliyotiga oid izdanishlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin [8].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish muammolari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) olimlari V.Averin, N.Belitskaya, V.Belich, V.Bibler, V.Gagay, B.Geydman, E.Gorlova, Dayana Xalperi, N.Dik, A.Zak, M.Kalugin, N.Novotortseva, I.Krotov, G.Levitas, N.Leonova, L.Lixtarnikov, A.Markova, M.Matyuxina, S.Spiridonova, M.Mauerman, G.Tsukerman O.Tarasova. E.Revin, V.Knyazeva Ya.Gabbazova, G.Nesis, G.Alekseev, G.Kasparov, A.3arrash, A.Kotov, N. Krogius, T. Petrosyan. [10] va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Shaxmat ta’limi jarayonida o‘quvchi shaxsini shaklantirishning pedagogik-psixalogik jihatlari ishlab chiqilgan.

Xorij olimlaridan E.Fromm, M.Mauerman, A.Maslou, Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Templ, R. Zuzoueu, Robert Fergyuson, Florian Vaulon. A. Bisno, Ernst Bensh, Uve Bensh, Dj. Bul A.Inizian, J.Kalmi, S.Frene, P.Kergomar, J.Piaje, S.Bendjamin. [4] kabilar tomonidan kichik yoshdagi o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, shaxmat o‘qitish jarayonini takomillashtirish zarurati u yoki bu jihatdan o‘rganilgan.

Ko‘plab mashhur shaxmatchilar shaxmat bilan ilk bor kichik yoshida tanishgan, xususan, X.Kapablanka, A.Karpov, P.Keres, S.Reshevskiy, M.Eyve qadimgi o‘yin

bilan ilk bor 4 yoshida, N.Gaprindashvili, G.Kasparov 5 yoshida, V.Smislov, B.Spasskiy, R.Fisher 6 yoshida, A.Alyoxin, M.Tal esa 7 yoshida o‘ynashga kirishgan [7]. Albatta, shaxmat o‘yiniga jalb qilingan bolalarning barchasi ham chempion bo‘lavermaydi. Ammo, shaxmatning barkamol shaxsni shakllantirishga qo‘shgan hissasi juda ham katta ekanligini ta’kidlash joiz.

Xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari, shuningdek, shaxmatni o‘qitish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, shaxmat mashg‘ulotlarini boshlash uchun 5-10 yosh oralig‘i eng qulay davr hisoblanadi, chunki bu davrdan boshlab bolalarda mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlari shakllana boshlaydi. Rivojlanishning bu bosqichida shaxmat ideal model hisoblanadi. Boshlang‘ich maktab yoshida bola aql-zakovatining jadal shaklantirish nafaqat inson ruhiyatida, balki umuman hayotida ham katta rol o‘ynaydi. Agar shaxmat hammaga o‘rgatilsa, shaxmat o‘yinini o‘ynashni davom etish yoki etmasligidan qat’iy nazar, barcha bolalarga aynan nimani berishini tushunish bilan bog‘liq bo‘lgan “tarbiyaviy” ko‘rsatma etakchi bo‘lib boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Eksperimental tarzda shaxmatni faol o‘ynayotgan bolalarda intelektual reaktsiya tezligi o‘yinni o‘ynamaydigan bolalarga nisbatan 40% yuqori ekanligi aniqlandi. Bunda har bir bolaning aql xususiyatlari bitta ma’lumot bilan doimiy qotib qolgan bo‘lmaydi, balki muayyan ta’lim sharoitida progressiv o‘zgarishlarga uchrashini anglatadi. Bunday sharoitni ta’minlashda muhim o‘rin shaxmatga tegishli ekanligini ukitirib o‘tish mumkin.

Shaxmat bolaning har tomonlama rivojlanish vositasidir. Bu umumiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan o‘yin xarakteridagi umuminsoniy tarbiyadir. Shaxmat tashqi va ichki nutqning shaklantirishga, kombinator va mantiqiy fikrlash, iroda, hayotiy faollik, tanqidiylik, o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash, mustaqil ta’lim olish qobiliyatiga ta’sir qiladi.

Maktab ta’limining muammoli tomoni doimo bo‘lib kelgan va qolaversa, olingan bilimlarni amalda qo‘llay olish qobiliyatini bermaydi. Shaxmat bolalar uchun amaliy jihatdan rivojlangan va uzviy nazariyaga ega bo‘lgan qiziqarli amaliy faoliyat turi hisoblanadi.

Shu sababli ham, barcha bolalarga shaxmatni o‘rgatish kerak va mutaxassislarning fikriga ko‘ra, buni amalga oshirishning eng qulay vaqti boshlang‘ich maktabda yoki hatto maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Shaxmatni yoqtiradigan o‘quvchilarga esa o‘qishni o‘rta maktabda davom ettirish imkoniyati berilishi kerak.

Ko‘pincha bolaning kelajakda shaxmat grossmeysteri bo‘lish ichki salohiyati (iste’dodi) mavjud bo‘lishi mumkin. Lekin uning yoshi yoki boshqa sabablarga ko‘ra, u hali shaxmatga jalb qilinmaydi. Bunday hollarda uning yashirin iste’dodini hisobga olmasdan, faqat tashqi omillar asosida qaror qabul qilib bo‘lmaydi. Afsuski, shaxmat didaktikasida tabiatning “yashirin" iste’dodini ko‘rish, shaxmatda bolaning rivojlanish ko‘rsatgichini aniqlash va baholash imkonini beruvchi ob’ektiv vositalar yo‘q.

T. Ognevaning fikricha, “Shaxmat orqali bolaning rivojlanish sifati va tezligini oshirish uchun bolaning bu o‘yinni o‘rganishdan oldin shaxmat o‘yiniga qobiliyatini

bilish muhimdir”. U har bir bolaning haqiqiy rivojlanish sohasini ko‘rishga imkon beradigan psixologik metodlar tizimini ishlab chikdi. Bu o‘quv jarayonida bolaning imkoniyatiga qarab yuklamani aniqlash imkonini beradi. Natijada bolaning mantiqiy fikrlash prognozi oshib boradi [14].

Shaxmat o‘ynashda mantiqiy fikrlashni holisona baholash uchun shaxmatchilarga qo‘yiladigan talablarni, ya’ni shaxmatchi qanday psixologik, fiziologik, aqliy, ijodiy, axloqiy sifatlarga ega bo‘lishi lozimligini bilish kerak. Shunday qilib, shaxmat o‘yini uchun bolaning salohiyatini har tomonlama baholash asosiy vazifa hisoblanadi. Bunda turli xil diagnostik vositalar va usullardan foydalanish mumkin. Shaxmatni o‘rganish va shaxsni shakllantirishni tashhislashning bu usullari butun o‘quv materialini qamrab holda rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillariga asoslanishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga shaxmat o‘yinida mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarni aniqlash metodikasini ishlab chiqish murakkab bo‘lib, u maxsus psixologik-pedagogik diagnostik usullarni talab etadi. Bizningcha, bunday usullar shaxmat o‘yinining barcha tarkibiy qismlarini tizimli baholashga imkon beradi. Salohiyatni baholashga har tomonlama yondashish shaxmat olamining eng yaxshi vakillari ega bo‘lgan shaxsiy fazilatlarni hisobga olgan holda va ularning yuqori darajadagi muvaffaqiyati uchun shart-sharoitlar nuqtai nazaridan ishlab chiqilishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxmat o‘ynash mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarni aniqlash bo‘yicha taklif etilayotgan majmuaviy metodikasi iste’dodli shaxmachilarga xos bo‘lgan psixologik, jismoniy, aqliy, ijodiy va ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘z ichiga qamrab olgan.

Boshqa usullardan farqli ravishda taklif etilayotgan empirik ma’lumotlarga asoslangan murakkab metodika ilmiy va ixtisoslashtirilgan adabiyotlar tahlili, psixologik - pedagogik tajribalar, shaxmat darslarini o‘qitish tajribasi hamda dunyoning etakchi shaxmatchilarining tajribalari asosida ishlab chiqiladi. Tadqiqotning jarayonida iste’dodli shaxmatchi uchun belgilangan talablarni 5 ta blok guruhga ajratdik: psixologik, jismoniy, intellektual, ijodiy va ma’naviy-axloqiy. Tabiiyki, ularning barchasi o‘zaro bog‘liq. Ushbu guruhlash shartli bo‘lib, bolani shaxmat yo‘lining boshida kerakli rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu farqlanish ana shu sifatlarning qaysi biri tug‘ma deb hisoblanishini hayot davomida shaklantirish mumkinligi hamda ularning qaysi biri faqat shaxmat o‘yiniga taalluqli ekanligini aniqlashdan iborat [11].

Shaxmatchi shaxsiyatiga qo‘yiladigan talablar:

Psixologik - xotira, diqqat, refleksiya, kontsentratsiya, o‘z-o‘zini anglash, stressga qarshilik, vazminlik, o‘zini o‘zi, o‘ziga ishonch, qunt bilan ishlashi, mobillik, hissiyotlarni nazorat qilish, diqqatini ko‘chira olish va boshqalar.

Intellektual-umumilmiy bilimlar, shaxmat nazariyasi, asosiyni ajratib olish ko‘nikmasi, ma’lumotni tahlil qilishi, raqibning psixologiyasini o‘rganish ko‘nikmasi, tafakkur faolligi va boshqalar.

Kreativ-muammoni ko‘ra olishi, tafakkurining tizimliligi mantiqiyligi, tashabbuskorlik, tafakkurining divergentligi va boshq.

Jismoniy- iroda sifatlari, mehnatkashliki, o‘zini o‘zi tashkil qila olish, intizom, jangchiga xos sifatlar, o‘zini o‘zi nazorat qila olish, charchog‘ini nazorat qilishi va boshqalar.

Axloqiy-.motivatsiya, muloqot madaniyati, ahloqiy qadriyatlar yordam ko‘rsatishga tayyor ekanligi etik me’yorlar va boshqalar [8].

Belgilangan talablar va ularning tarkibiy qismlari asosida bolaning shaxsiy sifatlari mosligini aniqlash uchun diagnostik vositalardan foydalanish mumkin.

Tashhis natijalarini tahlil va talqin qilish. Yuqorida qayd etilganidek, shaxmatni o‘rganish mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarni shaklantirishni har tomonlama baholash o‘quvchi shaxsining psixologik, aqliy, ijodiy, jismoniy, ma’naviy va axloqiy sifatlarini aniqlashdan iborat. Quyida sinaluvchi shaxs xususiyatlari va tashhis vositalari hamda rivojlanish darajasi ko‘rsatilgan jadval keltirilgan. Tavsiya etilgan vositalar (testlar, shaxmat o‘yini, masalalar echish) asosida sonli ko‘rsatkichlar aniqlanadi va jadvalga kiritiladi.

2-4 sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlari shaklantirish takomillashtirilib o‘qitish smaradorligini aniqlash ko‘rsatkichlari (foizda) (tajriba sinfi-960 nafar, nazorat sinfi-790 nafar o‘quvchi)

№	M e z o n l a r	Sinflar	O‘zlashtirish darajalari					
			Tajriba boshida			Tajriba yakunida		
			yuqori	o‘rta	past	yuqori	o‘rta	past
1	Mantiqiy xotira	Tajriba	260	300	400	480	320	160
		Nazorat	230	245	315	195	275	320
2	Diqqatni jamlash	Tajriba	285	315	360	460	325	175
		Nazorat	145	270	375	285	270	235
3	Obraz tafakkur darajasi	Tajriba	295	290	375	470	325	165
		Nazorat	160	275	355	190	270	330
4	Intelektual bilish darajasi	Tajriba	260	345	355	475	330	155
		Nazorat	200	265	325	275	260	255
5	Kraektiv fikrlash	Tajriba	310	335	315	575	230	155
		Nazorat	240	230	320	200	350	240
6	Qunt- matonat	Tajriba	300	255	405	490	300	170
		Nazorat	220	210	360	290	150	350
7	Qatiyatlilik	Tajriba	245	220	495	495	305	160
		Nazorat	290	365	135	190	250	350
8	Bardoshlilik	Tajriba	310	290	360	465	325	170
		Nazorat	165	285	340	280	290	220
9	O‘zini o‘zi taxlil qilish	Tajriba	225	355	380	480	345	135
		Nazorat	160	275	355	175	285	330
10	Sabr-toqatlilik	Tajriba	210	295	455	510	295	155

	Nazorat	290	180	320	220	300	270
J a m i:	Tajriba	2700	3000	3900	4900	3100	1600
	Nazorat	2100	2600	3200	2300	2700	2900
O‘ r t a ch a s i:	Tajriba	270	300	390	490	310	160
	Nazorat	210	260	320	230	270	290

2-4 sinf o‘quvchilarida mantiqiy va shaxsif sifatlari shaklantirishni takomillashtirib o‘qitish smaradorligini aniqlash yuzasidan tajribadan oldingi o‘zlashtirish natijalari

Sinflar	**2-4 sinf o‘quvchilari soni**	**O‘zlashtirish darajalari**		
		Yuqori	**O‘rta**	**Past**
Tajriba sinfi	960	270	300	390
Nazorat sinfi	790	210	260	320

Tajriba sinfidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va 2-4 sinf o‘quvchilari sonini mos ravishda X_in_i lar va shu kabi nazorat sinfidagini esa Y_jm_j lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variatsion qatorlarga ega bo‘lamiz, shuningdek, yuqori ko‘rsatkichni 3 ball bilan, o‘rta ko‘rsatkichni esa 2 ball bilan va past ko‘rsatkichni 1 ball bilan belgilaymiz.


Tajriba sinfidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari:

$$\begin{cases} X_i & 3; & 2; & 1; \\ n_i & 270; & 300; & 390 \end{cases} \qquad n = \sum_{i=1}^{3} n_i = 960$$

Nazorat sinfidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari:

$$\begin{cases} Y_i & 3; & 2; & 1; \\ m_j & 210; & 260; & 320; \end{cases} \qquad m = \sum_{j=1}^{3} m_j = 790$$

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko‘rinishni oladi:



1-*rasm*. Tajriba boshida.

2-4 sinf o‘quvchilarida mantiqiy va shaxsif sifatlari shaklantirishni takomillashtirib o‘qitish smaradorligini aniqlash yuzasidan tajribadan keyingi o‘zlashtirish natijalari.

Sinflar	2-4 sinf	O‘zlashtirish darajalari

	o‘quvchilari soni	Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba sinfi	960	490	310	160
Nazorat sinfi	790	230	270	290

Tajriba sinfidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va 2-4 sinf o‘quvchilari soni bo‘yicha mos ravishda yuqoridagi kabi belgilashlar kiritamiz.


Tajriba sinfidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari:

$$\begin{cases} X_i & 3; \quad 2; \quad 1; \\ n_i & 490; \quad 310; \quad 160; \end{cases} \qquad n = \sum_{i=1}^{3} n_i = 960$$

Nazorat sinfidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari:

$$\begin{cases} Y_i & 3; \quad 2; \quad 1; \\ m_j & 230; \quad 270; \quad 290; \end{cases} \qquad m = \sum_{j=1}^{3} m_j = 790$$

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko‘rinishni oladi:



2-*rasm*. Tajriba yakunida.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko‘rsatgichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma’lum $\overline{X}=2{,}34$; $\overline{Y}=1{,}94$ $\Delta_x = 0{,}05$; $\Delta_y = 0{,}1$ ga teng.

Bundan sifat ko‘rsatgichlari:

$$K_{усб} = \frac{(\overline{X} - \Delta_x)}{(\overline{Y} + \Delta_y)} = \frac{2{,}34 - 0{,}05}{1{,}92 + 0{,}1} = \frac{2{,}29}{1{,}93} = 1{,}18 > 1;$$

$$K_{бдб} = (\overline{X} - \Delta_x) - (\overline{Y} - \Delta_y) = (2{,}34 - 0{,}05) - (1{,}92 - 0{,}1) = 2{,}29 - 1{,}91 = 0{,}38 > 0;$$

Olingan natijalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko‘rish mumkin. Bundan ma’lumki, tajriba sinfidagi o‘zlashtirish nazorat sinfidagi o‘zlashtirishdan yuqori ekan.

Demak, 2-4 sinf o‘quvchilarida mantiqiy va shaxsif sifatlari shaklantirishni o‘qitish smaradorligini aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekanligi statistik tahlildan ma’lum bo‘ldi.

Xulosa va takliflar. Bolalarni shaxmat o‘ynashga o‘rgatish jarayoni ularda mantiqiy va shaxsiy sifatlari shaklantirishni ko‘p jihatdan yordam beradi. Bu shaxmat o‘ynovchi o‘quvchining individual xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, bunda uning xotira, diqqat va fikrlash kabi ruhiy jarayonlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Shaxmat o‘yini maktab o‘quvchilarining ko‘rgazmali va obrazli tafakkurini rivojlantiradi, mantiqiy tafakkurning shakllantishga ko‘maklashadi, qat’iyatli, diqqatli bo‘lishni, fikrlashni va maqsadga intilishni o‘stiradi. Bu o‘yinni o‘rgangan bola o‘z-o‘zini tanqid qiladi, mantiqiy fikrlashga, ustaqil qaror qabul qilishga, oxirigacha kurashishga, muvaffaqiyatsizliklardan tushkunlikka tushmaslikka odatlantiradi.

Shaxmat faoliyati orqali o‘quv jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarini shakllantirish yuzasidan qo‘ydagi taviyalari ishlab chiqildi .

1. O‘quvchilarni mantiqiy fikrash va izchil to‘g‘ri tartiblarga o‘rgatish: taqqoslash, analiz, sintez, umumlashtirish, tasniflash, o‘xshatishlarni qiyoslash va boshqalar.
2. O‘quvchilarning mantiqiy ko‘nikma va malakalar tizimini shakllantirish.
3. O‘quvchilarni o‘z-o‘zini mantiqiy xatolarini aniqlash va tanqidiy munosabatga o‘rgatish.
4. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi darajasini diagnostika qilish.
5. O‘quvchilar faoliyatini ularning mantiqiy tafakkurini shaklantirishni motivatsiyaviy o‘rganish.
6. Shaxmatni o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan mantiqiy vazifalar tizimini o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqish.
7. Shaxmat faoliyatini tashkil etish strukturasining mantiqiy tafakkurni shaklantirish vazifalariga optimal mosligini hisobga olgan holda dars materialini izchil tuzish.
8. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarini shaklantirish darajasini boshqarish va korrektsiyalash lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi "Shaxmatni yanada shaklantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" PQ-4954-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-avgustdagi “Shaxmatni yanada ommalashtirish va shaklantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-347-son qarori.
3. Анишева В. Е. Методические особенности Индивидуализированного начального обучения шахматам детей младшего школьного возраста. Дисс. канд. пед. наук. РГАФК. - М., 2002. - 163 с.
4. Барташников А. Психологические особенности и формирование оперативной памяти у школьников и шахматистов. Дисс. канд. псих. наук. - М., 1988. - 211 с.

5. Вершинин М. А. Теория проектирования системы формирования логического мышления шахматистов: дис.доктора педагогических наук, Волгогр. гос. акад. физ. культуры. – Волгоград, 2005. -506 с.

6. Габбазова А. Я. Интеллектуальное развитие детей младшего актуальное развитие детей младшего школьного возраста в процессе обучения шахматной игре : Дисс. канд. псих. наук. 19.00.07: М., 2005 151 с. РГБ ОД, 61:05-19/671.

7. Гришин В. Г. Дети играют в шахматы: Кн. для воспитателей дет. сада и родителей. 2-е изд., дораб. -М.: Просвещение: АО “Учеб. лит.”, 1995. -159 с.

8. Джураев Р. Х., Махмудов А. Х., Камилова А. Б. Шахматы – как эффективное средство непрерывного формирования и развития творческих способностей детей. -Т.: Узлуксиз таълим, 2019. -№3. -58-64 с.

9. Зак А. Путешествие в Сообразилию или как помочь ребенку стать смышленым. НПО «Перспектива», - М., 1993.

10. Князева В. В. Структура и содержание учебного предмета шахматы в системе общеобразовательной школы России. - Дисс. на соиск. д.п.н., М.: 2000. -410 с.

11. У. Холиқов. Бошланғич синф ўқувчиларда шахмат ўргатиш орқали мантиқий фикрлаш ва шахсий сифатларини баҳолашнинг иннавоцион усуллари O‘rta Osiyo ta’lim va innovatsiyalar jurnali-1 (2), 28-37 с.

12. U. K. Khalikov. PEDAGOGICAL VALUE OF DEVELOPING PLAYING CHESS AMONG PRIMARY SCHOOLCHILDREN. Bulletin of Gulistan State University 2021 (2), 17-23.

13. Тарасова О. В. Педагогические условия формирования логической культуры младших школьников средствами шахматной деятельности: Дис . канд. пед. наук. - Казань, 2005. - 209 с.

14. Огнева Т. А. Диагностика уровня дифференцированности зрительного восприятия у первоклассников/«Возможностипрактической психологии в образовании. Из опыта работы психологовУЦ «перспектива». Вып. 3. Ред. Пилипко Н.В. М.: УЦ «Перспектива», 2001. С. 78-84.

TA’LIMNI AXBOROTLASHTIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Xotamov Eldorbek Orifjonovich, Shahrixon agrosanoat texnikumi Ishlab chiqarish ta’limi bo‘yicha direktor o‘rinbosari,
e-mail: eldor559900@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’limni axborotlashtirish, ta’lim tizimining rivojlanishi ta’lim tizimini takomillashtirishning yangi istiqbollari haqida so‘z boradi. Hozirgi zamon ta’lim jarayonida an’anaviy tushunchalar qatorida ta’limda axborot texnologiyalari tushunchalari keltirilgan. Ta’limda axborot texnlogiyalarini tashkil etishni rivojlantirish, belgilangan maqsadga javob beruvchi uslubiyot va texnologiyani tanlash hamda turli xil o‘quv vaziyatlarda yaratilishi ifodalangan.

Kalit so‘zlar: axborotlashtirish, texnologiya, ta’lim, axborot, kompyuter, ta’minot, internet

USE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION INFORMATION

Abstract. This article talks about the new perspectives of education information, the development of the education system, and the improvement of the education system. Among the traditional concepts in the current educational process, the concepts of information technologies in education are presented. The development of the organization of information technologies in education, the choice of methodology and technology that meets the set goal, and the creation of different educational situations are expressed.

Keywords: informatization, technology, education, information, computer, supply, Internet

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ИНФОРМАЦИИ

Аннотация. В данной статье говорится о новых перспективах образовательной информации, развитии системы образования и совершенствовании системы образования. Среди традиционных концепций в современном образовательном процессе представлены концепции информационных технологий в образовании. Выражается развитие организации информационных технологий в образовании, выбор методологии и технологии, отвечающих поставленной цели, создание различных образовательных ситуаций.

Ключевые слова: информатизация, технологии, образование, информация, компьютер, снабжение, Интернет.

Kirish. Mamlakatimiz uchun ilm-fan sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini bir yo‘la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo‘nalishini rivojlantirish tarafdorimiz. Ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish lozim. Har bir oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot dargohi nufuzli chet el universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi shart. Ta’limning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to‘liq javob beradigan axborot texnologiyalari joriy etilishi shart Soha uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda ta’lim sifatini yanada oshirish uchun maqsadli harakatlar amalga oshirilmoqda. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi va oliy ta’lim tizimi katta yutuqga erishishi uchun hozirgi kunda sohaga oid tahsinga sazovor ishlar olib borilmoqda. Jamiyat rivojining yangi shart-sharoitlari axborotlashgan jamiyat talablariga javob beruvchi zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanib ta’lim tizimi bosqichma bosqich amalga oshirish ishlari boshlab yuborildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ta’limni axborotlashtirish so‘nggi bir necha o‘n yillikda ta’lim muassasalariga kirib kelgan asosiy yangiliklardan biridir. Kompyuterlarning imkoniyatlari o‘quvchilarda o‘rganish istagini shakllantiradi, ularning qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi. Darslarida o‘quv ta’siri va nazorati kompyuterga o‘tkazilganda, o‘qituvchi o‘quvchilarda izlanish maqsadini anglash, ilgari o‘rganilgan bilimlarni faol takrorlash, tayyor manbalardan yetishmayotgan bilimlarni to‘ldirishga qiziqish, mustaqil izlanish kabi fazilatlarni namoyon etishni kuzatish va qayd etish imkoniyatini oladi. Axborot texnologiyalarining ta’limga kirib kelishi o‘quv jarayoniga talabalarning axborot olishi, uni qayta ishlashi va undan foydalanishi axborot jarayoni sifatida qarashni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ta’limni axborotlashtirishga faqat kompyuter va boshqa elektron o‘quv vositalaridan foydalanish emas, balki o‘quv jarayonini tashkil etishga yangicha yondashuv sifatida qaralishi lozim. Bunday vositalar yordamida talabalar va o‘qituvchilarga olingan xabarlarni tahlil qilish va ularga qulay vaqtda javob berish imkonini beruvchi axborot (o‘z-o‘zini tekshirish vazifalari, qiziqtirgan savollar, test varaqalari) almashish mumkin bo‘ladi. Ta’limni axborotlashtirishda asosiy yo‘nalish kompyuter va dasturiy mahsulotlar bilan ishlash ko‘nikmalarini egallashdan o‘quv elektron darsliklar, o‘quv dasturlari, ensiklopediyalar va resurslarni to‘g‘ri tarkib tuzish, tanlash va ulardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatishga o‘tish lozim. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarga ega bo‘lishi, balki ta’lim muassasasida o‘z kasbiy faoliyatida yangi texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha malakali mutaxassis bo‘lishi kerak [1]. Ta’limning bugungi vazifasi ta’lim oluvchilarni kun sayin to‘lib toshayotgan axborot - ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga o‘rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash sharoitini yaratib berish zarur. Ta’lim jarayonining oldida doimiy ravishda axborot to‘plash, uni qayta ishlash va axborot bilan almashinish masalalari turadi.

Tabiiyki, shu sababli ta’limning axborot ta’minoti – axborotni qandaydir tashuvchilarda uni akslantirish shakl, vosita va usullari yaratilgan. Ular to‘g‘risida ma’lumotlarni quyidagi mulohazalarda keltiramiz.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining vositalari qatoriga: kompyuter, skaner, videoko‘z, videokamera, LCD proyektor, interaktiv elektron doska, faks modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Intranet tarmoqlari, mobil aloqa tizimlari, ma’lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun’iy intelekt tizimlarini kiritish mumkin. Axborot texnologiyasi vositalari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o‘zlashtiriladi. Bu jarayon quyidagilarni o‘z ichiga oladi: [2]

- -kompyuter, shuningdek, printer, modem, mikrofon va ovoz eshittirish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proyektori, chizish plansheti, musiqali klaviatura kabilar hamda ularning dasturiy ta’minoti;
- uskunaviy dasturiy ta’minot;
- -virtual matn konstruktorlari, multiplikatsiyalar, musiqalar, fizik modellar, geografik xaritalar, ekran protsessorlari va h.k.;
- axborotlar majmui -ma’lumotnomalar, ensiklopediyalar, virtual muzeylar va h.k.;
- texnik ko‘nikmalar trenajyorlari (tugmachalar majmuidan tugmachalarga qaramasdan ma’lumot kiritish, dasturiy vositalarni dastlabki o‘zlashtirish va h.k.). Axborot texnologiyalari vositalarining markazida turuvchisi kompyuterdir. Kompyuter (ingl. computer «hisoblagich»);
- berilgan, ochiqlikda aniqlangan o‘zgaruvchi amallar ketma-ketligini, ko‘proq sonli hisoblarni bajara oladigan qurilma yoki tizim. Ma’lumki axborot texnologiyalari -axborotlarni yig‘ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usul va vositalari majmuidir [2].

Axborot texnologiyalari vositalari	**Foydalanishi (foizda)**
kompyuter	45%
skaner	10%
proyektor	15%
elektron doska	20%
videokamera	10%

Ta’lim jarayoniga kompyuter texnologiyalari va kompyuter texnologiyalarini joriy etish va qo‘llash jarayonini tahlil qilish ta’limni axborotlashtirishning uch bosqichini (shartli ravishda elektronlashtirish, kompyuterlashtirish va o‘quv jarayonini axborotlashtirish deb ataladi) ajratish imkonini berdi.

Ta’limni axborotlashtirishning birinchi bosqichi (elektronlashtirish) talabalarni tayyorlash jarayoniga dastlab texnik, so‘ngra gumanitar fanlar va talabalarni tayyorlash jarayoniga elektron vositalar va kompyuterlarning keng joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Algoritmlash va dasturlash asoslarini, mantiq algebrasi elementlarini, matematik modellashtirishni kompyuterda o‘qitishni taklif qildi. O‘sha davrdagi

kompyuterlarning nisbatan past mahsuldorligi, ishda qulay, oddiy foydalanuvchi uchun intuitiv va qulay dasturiy interfeysga ega bo‘lmaganligi gumanitar ta’lim sohasida kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanishga yordam bermadi.

Ta’limni axborotlashtirishning ikkinchi bosqichi yanada kuchli kompyuterlar, do‘stona interfeysga ega bo‘lgan dasturiy ta’minotning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, birinchi navbatda, inson va kompyuter o‘zaro muloqotidan foydalanish bilan tavsiflanadi. Kompyuter ta’lim texnologiyalari modellashtirish asosida turli jarayon va hodisalarni o‘rganish imkonini berdi. Kompyuter texnologiyalari har xil darajadagi avtomatlashtirilgan tizimlarning bir qismi sifatida kuchli o‘qitish vositasi sifatida harakat qila boshladi. Ta’lim sohasida ta’limning avtomatlashtirilgan tizimlari, bilimlarni nazorat qilish va o‘quv jarayonini boshqarish tobora ko‘proq qo‘llanila boshlandi.

Ta’limni axborotlashtirishning uchinchi, zamonaviy bosqichi kuchli shaxsiy kompyuterlar, yuqori tezlikdagi yuqori sig‘imli saqlash qurilmalari, yangi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari, multimedia texnologiyalari va virtual haqiqatdan foydalanish, shuningdek, davom etayotgan jarayonni falsafiy tushunish bilan tavsiflanadi.

Natija. Jamiyatimizga kompyuterning kirib kelishi, inson faoliyatini tubdan o‘zgartirib, axborot, axborot texnologiyalari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, informatika, kompyuterlashtirish, ta’limni axborotlashtirish, kompyuterlashtirish kabi tushunchalarning paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ldi. Bugungi kunda ta’lim tizimini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu soha kundalik hayotimizda media-texnologiyalarining o‘rni tobora kengayib bormoqda. Katta hajmdagi yangi axborotlar, reklamalar, televideniya ko‘rsatuvlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish talabalarning ta’lim tarbiyasi ularning atrofdagi voqea-hodisalar to‘g‘risidagi tasavvurlari, tafakkuri hamda idrokiga katta ta’sir etmoqda. Ilgari talabalar istalgan mavzuga oid kerakli ma’lumotlarni darslik, ma’lumotnoma adabiyotlar o‘qituvchi tomonida fanga oid darsni konspektlashtirish holda egallab kelgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib asosan televideniya va radio, elektron darsliklar internet tarmoqlaridagi ma’lumotlardan foydalangan holda o‘zlashtirmoqda. Shu sababli bugungi kun o‘qituvchisi zamonaviy voqelikka to‘g‘ri yondashgan holda ta’lim jarayoniga axborot uzatishning yangi metodlarini olib kirishi hozirgi kun talabi hisoblanadi. Darsni AKT dan foydalanib, o‘tishda o‘qituvchi o‘z mehnatining ko‘p qismini kompyuterga yuklashi mumkin bo‘ladi. Bu bilan darsni yanada qiziqarli, rang-barang qilib, mazmunan boyitadi. O‘qituvchi o‘z vaqtida talabaning bilimini xolisona baholab boradi, ularga noan’anaviy saboq berish usullarini topishga ijodiy yondashadi. Bu esa o‘qituvchining kasbiy jihatdan rivojlanishiga asos bo‘ladi. Katta hajmdagi axborotlarni har bir talaba qisqa vaqt mobaynida o‘zlashtirishi va amaliy faoliyatda foydalana olishni o‘rgatish zarur bo‘ladi. Shuning uchun ham darsni shunday tashkil etish kerakki, unda har bir talaba o‘zini erkin his qilib, faol ishtirok etishi zarur. Har bir dars jarayoniga qiziqish bilan yondashib, mustaqil ijodiy fikrlashi, o‘z mehnati samarasini ko‘rib, uni baholay olishi kerak.

Kompyuter texnologiyalari (KT) yoki axborot texnologiyalari (AT) - bu kompyuterlardan foydalangan holda axborotni saqlash, qayta ishlash, uzatish, himoyalash va ishlab chiqishga javob beradigan texnologiyalarning umumlashgan nomi [4]. Zamonaviy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va iqtisodiyotning kompyuter qo‘llanmaydigan sohalarini tasavvur qilish qiyin. O‘qitishning kompyuterli texnologiyalari - bu kompyuter yordamida axborotni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va o‘quvchiga uzatish jarayonidir. Hozirgi kunda bunday texnologik yo‘nalishlar keng tarqalgan bo‘lib, ularda kompyuter [3]:

- o‘quvchilarga bilim uzatish maqsadida o‘quv materialini taqdim etish uchun vosita:
- axborotning qo‘shimcha manbasi sifatida o‘quv jarayonlarni axborotli qo‘llab-quvvatlash vositasi;
- o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash va o‘quv materiallarni o‘zlashtirganligini nazorat qilish vositasi;
- bilimlarni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini egallash uchun universaltrenajer;
- o‘quvchilarning bo‘lajak kasbiy faoliyatida muhim elementlardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda [3].

Muhokama. Kundalik turmushda turli ko‘rinishdagi axborotlar bilan ish yuritasiz, masalan, matnli, grafikli, jadvalli, ovozli (audio), rasmli, video va boshqalar. Har bir turdagi axborot bilan ishlash (yig‘ish, saqlash va h.k.) uchun turli axborot qurilmalari kerak va ular turli texnik xarakteristikalarga ega bo‘ladi.

Axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti va yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha sohalarini axborotlashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Chunki, ayni shu soha butun jamiyatning axborotlashtirilishi uchun asos va muhim zamin bo‘ladi. Axborot texnologiyalari bir nechta texnik vositalardan tashkil topadi. Texnik vositalar mehnat faoliyatida ishlab chiqarish vositalarining rolini bajarib, axborot texnologiyalarining ajralmas va eng muhim tashkil etuvchilarini tashkil etadi. Texnikaning asosiy vazifasi insonning mehnat kuchlanishining samaradorligi darajasini yengillashtirish va ko‘tarish, mehnat faoliyat jarayonida uning imkoniyatlarini kengaytirish, insonning salomatligi uchun xavfli sharoitlarda ishlashdan ozod (to‘la yoki qisman) etish hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari asosiy ta’lim vazifasidan tashqari o‘quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Asosiy fanlardan tashqari, talaba qo‘shimcha ta’lim olishi mumkin, masalan, dasturlash tilini o‘rganishni boshlashi, onlayn kurslardan, simulyatorlardan foydalanishi va istalgan ijtimoiy tarmoqda muloqot qilishi mumkin. Yashash joyi va yoshidan qat'iy nazar bilim olishingiz mumkin. Hozirgi vaqtda butun dunyo bo‘ylab tarmoq va turli xil dasturiy mahsulotlar o‘z assortimentida xilma-xildir. Aynan axborot texnologiyalarining rivojlanishi tufayli qo‘shimcha ta’limni davom ettirish g‘oyasi to‘liq amalga oshirilmoqda. Shuningdek, axborot texnologiyalari ko‘proq

odamlarni o‘rganishga, turli tadqiqot loyihalarini amalga oshirishga, innovatsion loyihalar va maqolalar yaratishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A. A., Pardayev A. X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. T.: Fan. 2009. -146 б.

2. Abduqodirov A. A., Toshtemirov D. E. Ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: “Universitet”, 2019. - 232 b.

3. Begimqulov U. Sh. (2004) Zamonaviy axborot texnologiyalar muhitida pedagogik ta’limni tashkil etish. "Pedagogik ta’lim" jur, № 1, 21-25 betlar.

4. Begimqulov U. Sh. va boshqalar. Pedagogik ta’limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2011. – 232 b.

MEDIA TA’LIMNI O‘QUV JARAYONIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Xudayberdiyev Abdumadjid Abdujalilovich, Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada media ta’limni o‘quv jarayoniga qo‘llash asosida ta’lim sifatini oshirishning imkoniyatlari xaqida fikr yuritiladi. O‘qituvchining pedagogik mahorati orqali talabalarda mediamadaniyatni shakllantirish ancha samarali ekanligiga alohida urg‘u beriladi. Talabalarda media ta’limni shakllantirish ularni nafaqat ta’lim jarayoniga balki, hayotga har tomonlama tayyorlashda ham muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: o‘quv jarayoni, mediata’lim, mediasavodxonlik, pedagogik jarayon, axborot kommunikatsiya.

РОЛЬ И ЗНАЧИМОСТЬ МЕДИА В ПРОЦЕСЕЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются возможности повышения качества образования на основе применения медиаобразования в образовательном процессе. Особый акцент сделан на том, что формирование медиакультуры у студентов посредством педагогического мастерства преподавателя очень эффективно. Формирование медиаобразования у студентов играет важную роль в подготовке их не только к учебному процессу, но и к жизни.

Ключевые слова: Образовательный процесс, медиаобразование, медиаграмотность, педагогический процесс, информационная коммуникация.

ROLE AND IMPORTANCE OF MEDIA IN THE EDUCATION PROCESS

Abstract. This article discusses the possibilities of improving the quality of education through the use of media education in the educational process. Particular emphasis is placed on the fact that the formation of media culture in students through the pedagogical skills of the teacher is very effective. The formation of media education among students plays an important role in preparing them not only for the educational process, but also for life.

Keywords: Educational process, media education, media literacy, pedagogical process, information communication.

Kirish. XXI asr – yuksak intelletual salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar asri. Chunki internet,

televidenie, radio, video, telefon va boshqa aloqa vositalari juda tez jadallik bilan rivojlanib bormoqda.

Mamlakatimizda bu borada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari hisoblanmish – mediadan ta'lim jarayonida foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlaridan keng foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda. Ta'lim jarayonida media, ya'ni, axborot kommunikatsion texnologiya vositalari o‘z samarasini ko‘rsatmoqda.

Mutaxassislar fikricha, mediata'lim talabani mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini yanada rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Ta'lim jarayonida mediata'lim qanchalik mukammal bo‘lsa, u talabaning dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanishiga xizmat qiladi. Demak, bugun mediata'lim sirlarini nazariy jihatdan puxta o‘rganib, amaliyotda etarli darajada qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Axborot kommunikatsiyaning globallashuvi sharoitida ta'lim jarayonida o‘ziga xos talablar paydo bo‘lmoqda. Bu talablar bevosita mediata'lim bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Talabalarda media buyicha ko‘nikma va malakalarni, mediasavodxonlikni rivojlantirish muammolari S. Beknazarova, Ya. Mamatova, S.Sulaymanova, oliy ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolari A. Abduqodirov, A. Pardaev, N. Taylakov, S. Tursunov, U. Begimqulov, U. Yuldashevlar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan A. Fyodorov, A.Milyutina, A.Veryaev, V.Protopopova, E.Nikitina, I.Fateeva, G.Onkovich, L.Zaznobina, N.Zmanovskayalar mediata'lim va mediasavodxonlikni tashkil etish bo‘yicha salmoqli izlanishlar olib borishgan. I.A.Zimnyaya, Yu.N.Usov, S.N.Penzin, A.V.Sharikov, V.A.Yadovlar mediasavodxonlikni tuzilishi va ijtimoiy xarakteri bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining jurnalistikaga oid fanlar orqali mediasavodxonlik va mediakompetentligini rivojlantirish borasida xorijiy olimlardan A.Silverblatt, McMahon, R. Kubey, C.M.Worsnop, W.J.Potter, U.Carlssonlar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Media ta'lim barcha ta'lim sohasini sifat jihatdan yanada yuqoriroq pag‘ona ko‘tarishga, axborot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ya'ni, talabaga o‘quv jarayonida nazariy bilim berish bilan materiallarni yuqori darajadagi zamoniviy texnika vositasida namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu yangilik va ta'bir joiz bo‘lsa, ilg‘or usul talabalarda qiziqish uyg‘otadi. Ular dars jarayonida o‘sha mavzularni puxta o‘zlashtirishlariga xizmat qiladi. Manbalarda qayd etilishicha, YuNESKO qoshidagi kino va televideniya bo‘yicha xalqaro kengash tomonidan 1973 yili birinchi martda video ta'limga shunday ta'rif berilgan edi: “Media ta'lim deganda pedagogika nazariyasi va amaliyotida maxsus bilim sohasi sifatida qaraliyotgan ommaviy kommunikatsiya vositalarini egallash uchun nazariy va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishni tushunish lozim”.

Turli mamlakatlarning ko‘plab olimlari “media muhiti”, “media madaniyati”, “media ta’limi”, “media savodxonligi” kabi asosiy tushunchalarni shakllantirishning bir necha usullarini aytib o‘tishgan.

Media ta’lim – (ing. media education, lot. media – degan ma’noni anglatadi). “Ta’lim” tushunchasining o‘zi nafaqat kasbiy va ilmiy bilimlarni, balki ma’naviy me’yorlar va madaniy qadriyatlarni takror ishlab chiqarishni, to‘plashni ta’minlaydigan ijtimoiy institutdir. Media ta’lim talabalarni ommaviy kommunikatsiya (matbuot, televideniye, radio, kino, video, internet va boshqalar) qonuniyatlarini o‘rganishga qaratadi.

Dars jarayonida ayon bo‘lishicha, mediata’lim o‘qitishning mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini sifat jihatdan o‘zgartirmoqda. Bu talabalarning individual qobiliyatlarini, ularning shaxs xususiyatlarini rivojlantirishga, tafakkurini boyitishga, bilimlarini oshirishga yordam bermoqda. Mediata’lim resurslari yordamida ular u yoki bu materialni tezroq o‘zlashtiradilar, o‘quv jarayoniga faol ishtirokchilar sifatida jalb qilinadilar.

Mediata’lim interfaol talaba-yoshlarga indivudial ta’sir etadigan usul sifatida ta’lim jarayoniga jadal sur’atlar bilan kirib kelmoqda. Media-ta’lim talabani mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash umumlashtirish, xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Mediata’lim qanchalik mustahkam bo‘lsa, talaba dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi.

Media ta’limning jadal rivojlanishi atrofimizdagi hayotni sifat jihatdan o‘zgartiradi hamda ko‘plab yangi muammolarni, masalan, axborot madaniyatini shakllantirish hamda o‘sib kelayotgan avlod salomatligi uchun so‘zsiz xafziligini ta’minlash muammolarini keltirib chiqaradi.

“Kompyuter savodxonligi”, “axborot savodxonligi” va “axborot madaniyati” tushunchalarining ta’riflarini qiyosiy tahlil qilamiz. Yuqoridagi tushunchalarning har birida insonning axborot bilan o‘zaro ta’sirining murakkab hodisasi tasvirlanadi. Bu tushunchalar doirasiga bir qancha komponentlar kiradi: axborotni qidirish, topilgan axborot manbalarini tahlil qilish va tanqidiy baholash qobiliyati, o‘quv, kasbiy yoki boshqa faoliyatda yuzaga keladigan turli muammolarni hal qilish uchun ulardan ijodiy foydalanishdir.

Media va axborot savodxonligi konsepsiyasi umuminsoniy huquqlarga asoslanadi hamda ayrim shaxslar, jamoalar va butun millatlar so‘z erkinligi huquqi va axborotdan foydalanish erkinligi huquqidan foydalanishining asosiy sharti deb hisoblanadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida qayd etilishicha, “Har bir inson e’tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir to‘siqsiz o‘z e’tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g‘oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat’i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o‘z ichiga oladi”.

Mediata’lim o‘quv jarayonida nazariy axborotni berish bilan materiallarni yuqori darajadagi zamoniviy texnika vositasida namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘quv ab’ektlari va voqeallarni model-lashtiradi, ularni avtamotik rivishda ketma-ketlikda namoyish etadi, ta’svirni tushuradi. Mediata’lim talaba-yoshlarning

o‘quv mazmunini o‘zlashtirishda qiziqishini yanada oshiradi. Talabalarning ko‘rgazma-obrazli ta’sirida fikr yuritishi, motorik va verbal kommunikativ ko‘nikmalarning shakllanishiga olib keladi.

Tahlil va natijalar: Mediata’limning bosh maqsadi – asosiy qonunlarni tushunishga yordam beradi, oddiy yo‘nalishlardagi media axborot tilini o‘rganish; talabaning badiiy o‘sishi, rivojlanishiga hissa qo‘shish, mediamatnlarni qabul qilish, o‘rganish va malakali tahlil etish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.

Ta’lim tizimini modernizatsiyalashda mediata’lim masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’limning barcha bug‘inlarida tobora faol qo‘llanilayotgan mediata’limning turli yo‘nalishi, tur va shakllari talabalar, jumladan, talabalarning ma’naviy kuchi, qobiliyatlarini ochish uchun maqbul sharoit yaratib, ta’lim tizimiga yangicha gumanistik yo‘nalganlik baxsh etadi. Mediata’lim o‘zining texnologik infrastrukturasi, o‘z tayanch ta’lim texnologiyalariga ega.

Mediata’lim-o‘quv jarayoni va uning barcha didaktik shart-sharoitlarni takomillashtiruvchi hodisadir. Ta’lim jarayonida mediata’limni tashkil etishda o‘quv predmetlarining materiallari nihoyatda talabchanlik bilan muvofiqlashtirilishi lozim. Talaba o‘rganilayottan materialning ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirishga harakat qilishi, talabalar ongida barqaror tizimlashtirilgan bilimlarni singdirish vositasi hisoblanadi.

Mediata’lim orqali dunyoning yetakchi mamlakatlari ta’lim sohasining ustivorligiga erishdi. Bugungi kunda yangi sifatli ta’limga erishish uchun ta’limni axborotlashtirish va o‘qitish uslublarini optimallashtirish, ochiq ta’lim texnologiyalaridan faol foydalanishni amalga oshirish zarur.

Media-ta’lim hozirgi davrda shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali rivojlanish jarayonini anglatadi.

Manbalardan kelayotgan axborot oqimidan to‘g‘ri foydalanib, o‘zining rivojlanishi uchun kerakli bo‘lgan axborotlarni o‘rganish. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda barcha mediaresurslarini tahlil qilish muhum rol o‘ynaydi. Xorijiy mediata’limning tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalar o‘zining o‘qish jarayonida asosan internet, televideniya manbalaridan foydalanishadi.

Jahon mediapedagogikasida medianing tarbiyaviy ijodiy ususllaridan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan.

Media-ta’lim usullari asosan quyidagi muhim bosqichlarga bo‘linadi;

- Media-nazariyasi, uning tarixi, strukturasi hamda tili haqida bilim olish (o‘qitish media-texnologiyasi);
- Mediamatnlarni qabul qilishni rivojlantirish «o‘qish, anglash, tasavvurni faollashtirish, xotirani rivojlantirish, fikrni turli usullarini rivojlantirish» (kritik, ijodiy, intuitv hamda obraz yaratish).
- Media-ta’lim faoliyatini olib borish uchun ma’lum bir profissional bilim ko‘nikma va ko‘rsatgichlariga ega bo‘lish lozim:
- Maxsus yo‘naltirilgan mediata’lim sohasida nazariy bilimlar hamda eng so‘nggi axborotlarga ega bo‘lish darajasi;
- Motivatsiyalashgan ko‘rsatgich.

Masalan, ta’lim jarayoniga:

-aqliy;
-vizual;
-sensor;
-audio bo‘lgan faoliyat;
-tezkor media-ta’lim sohasida metodik ko‘nikmalarini darajasi, masalan, media -manbalarni va ulardagi axborotlarni ijodiy yondashish orqali qabul qilish.

Mediata‘lim maqsadlari quyidagi ko‘rinishda ifoda etiladi:

• ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali beriladigan axborotlarni tushunish va qayta ishlash, keng talqin etishga o‘rgatish;

• ijodiy fikrlashni, u yoki bu xabarning yashirin mazmunini tushunishni, salbiy mazmunli axborotlardagi yoshlarning ongini o‘zgartirishga harakatlariga qarshilik qilishni bilishni rivojlantirish;

• talab etiladigan axborotni topish, tayyorlash, yetkazish va qabul qilish malakasini shakllantirish.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki media ta’lim-o‘quv jarayoni mazmuniga va o‘qitish metodikasiga tubdan o‘zgarishlar kiritadi, ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z faoliyatini aks ettirishga, uni mustaqil tartibga solishga yo‘naltirilgan pedagogik muammolarni yechishga imkon beradi.

Medianing o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish va hisobga olish zamonaviy talabaga o‘z pedagogik faoliyatini axborot olamidagi zamonaviy o‘zgarishlarga mos ravishda turli muammolarni hal qilish jarayonini aniq va to‘g‘ri tashkil etish, o‘z kasbiy malakasini oshirish jarayonida mediadan mohirona foydalanish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatova Ya., Sulaymanova S. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida O‘quv qo‘llanma, T-2015.
2. Namazov B., Fayzieva M., Sharofaddinov Sh. Media va axborot savodxonligi o‘quv qo‘llanma, Toshkent - 2017, 140 b.
3. Umurzakova B. A. Mediata’lim orqali mediamadaniyatni rivojlantirish ilmiy-pedagogik asoslari va zarurati // Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi mart 2022. №3.
4. Mahmudova M. Mediata’lim medisavodxonlikni ta’minlovchi vosita sifatida / Ilmiy tadqiqot va innovatsiya issn: 2181-3507 1-tom 1-son 2022. 34-35 b.
5. Xudayberdiyev A. A. General factors in the development of information culture of students // Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 11, Issue 06, June (2023).
6. Samarov R, Sattorov O. Axborot madaniyati va uni shakllantirishning nazariy-amaliy ahamiyati. / Zamonaviy ta’lim jurnali. 2014, 1-son.
7. http://mashvarat.zn.uz/2015/08/17/namanganda-seminar/

ZAMONAVIY O‘QITUVCHINING REFLEKTIV KOMPETENSIYASI TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETADIGAN OMIL SIFATIDA

Usmonova Kumush Baxodir qizi, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti,
e-mail: kumushusmonova55@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘qituvchining refleksiv kompetensiyasining mohiyati, uning asosiy tushunchalari va refleksiv kompetentlikni shakllantirish usullari ochib berilgan. Quyida muallif refleksivlik kompetensiyasi, refleksiv kompetentlik, refleksiya, psixologik lug‘at, kasbiy kompetensiya kabi atamalarga turli xil olimlar tomonidan berilgan izohlarni keltirib o‘tgan. Muallif maqolada bir nechta tilshunos olimlar tomonidan sohaga doir o‘tkazilgan tadqiqotlarini keltirib o‘tgan hamda ushbu izlanishlar natijasida yangi o‘qituvchini shakllantirishga, kasbiy mahoratini oshirishga va o‘quv jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy o‘sishiga qanchalik yordam berishini isbotlab bergan. Bundan tashqari, quyidagi maqolada o‘qituvchi shaxsiyatining beshta kasbiy muhim ahamiyatga ega sifatini o‘z ichiga olgan pedagogik qobiliyatlar guruhini uchratish mumkin.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, o‘quv jarayoni, o‘qitish, tajriba, o‘qituvchi, kasbiy mahorat, rivojlanish, reflektiv, talabalar, pedagogik, bilim, ko‘nikma, malaka.

РЕФЛЕКСИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ СОВРЕМЕННОГО ПЕДАГОГА КАК ФАКТОР, ВЛИЯЮЩИЙ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье раскрывается сущность рефлексивной компетентности учителя, ее основные понятия и способы формирования рефлексивной компетентности. Ниже автор приводит пояснения различных ученых к таким терминам, как рефлексивная компетентность, рефлексивная компетентность, рефлексия, психологическая лексика, профессиональная компетентность. В статье автор привел исследования, проведенные рядом лингвистов в данной области, и доказал, насколько эти исследования помогают формированию нового учителя, совершенствованию его профессиональных навыков и личностному росту участников образовательного процесса. Кроме того, в следующей статье вы сможете найти группу педагогических умений, включающую пять профессионально важных качеств личности учителя.

Ключевые слова: компетентность, образовательный процесс, обучение, опыт, педагог, профессиональные навыки, развитие, рефлексия, обучающиеся, педагогика, знания, умения, компетентность.

Abstract. This article reveals the essence of teacher's reflexive competence, its main concepts and ways of forming reflexive competence. Below, the author cites the explanations given by various scientists to terms such as reflexivity competence, reflexive competence, reflection, psychological vocabulary, and professional competence. In the article, the author cited the research conducted by several linguists in the field and proved how much these researches help to form a new teacher, improve his professional skills and personal growth of the participants of the educational process. In addition, in the following article, you can find a group of pedagogical skills that includes five professionally important qualities of a teacher's personality.

Keywords: competence, educational process, teaching, experience, teacher, professional skills, development, reflective, students, pedagogic, knowledge, skills, competence.

Kirish. Jamiyatning barcha sohalari jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi zamonda ta'lim jarayoni ham chuqur o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Xususan, hozirda zamonaviy pedagogning oldida juda ko‘p talablar turibdi, ya'nikim, hozirgi o‘qituvchilar nafaqat o‘z fanida bilimli bo‘lishi kerak, balki o‘sha bilimni o‘quvchilarga yetkaza biladigan ko‘nikma va malakaga ega ham bo‘lishi shart. Bulardan biri pedagogik refleksiya hisoblanadi.

Pedagogik refleksiya - bu pedagogik faoliyatning bir turi bo‘lib, uning tarkibida o‘qituvchi kasbiy faoliyati va muloqoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan shaxsiy ichki qarama-qarshiliklarni aniqlash va hal qilish modelida kasbiy pedagogik faoliyatning olingan va kelajakdagi natijalarining samaradorligi va sifatini mustaqil ravishda belgilaydi [1].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. “Psixologik lug‘at” (V. V. Davydov va boshqalar tomonidan tahrirlangan) konsepsiyaga quyidagi ta'rifni beradi: “Refleksiya - bu harakat qiluvchi shaxsning aloqa sheriklari tomonidan qanday qabul qilinishini anglashi” [2, 320 b.].

Pedagogik refleksiyaning maqsadi: kasbiy pedagogik faoliyat mahsulotlari va resurslarini va kasbiy mehnat munosabatlari tizimini obyektiv baholash va o‘z-o‘zini tahlil qilishda o‘qituvchi shaxsini rivojlantirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini o‘zi anglash uchun optimal sharoitlarni yaratish [1].

Pedagogik refleksiya kasbiy mahorat va pedagogik mahoratni oshirishning zaruriy sharti bo‘lib, u o‘qituvchi va talabalarning ichki dunyosi va rivojlanish holatini aks ettiradi. Shunday qilib, u o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash, o‘quvchilari faoliyatining natijalarini ko‘rish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Boshqa so‘z bilan aytganda, bu uning shaxsiyati va faoliyatining professional muhim jihatlarida yuqori samaradorlikni saqlashga undaydi. Ta'lim jarayonida pedagogik refleksiya funksiyalarining xarakteristikalari 1-jadvalda keltirilgan.

Qo‘shimcha qilib shuni aytish mumkinki, muvaffaqiyatga erishish uchun zamonaviy o‘qituvchi ta'lim muassasalaridagi boshqa hamkasblari tajribasini o‘zlashtirishi, shuningdek, o‘zining ilmiy g‘oyalari va ishlanmalarini ko‘rib chiqish uchun taklif qilishi kerak.

O‘qituvchilarning universitetda o‘qish jarayonida egallagan psixologik-pedagogik mahorati ularning bevosita ta’lim jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar bilan shug‘ullanishi, kasbiy mahorat cho‘qqilariga chiqishi va martaba zinapoyasidan ko‘tarilishi imkonini berishi kerak.

Bir so‘z bilan aytganda, o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan ishlashda ularga o‘z faoliyati tajribasini yetkazishlari, o‘z qobiliyatlariga ishonchni shakllantirishlari, o‘zaro munosabatlarni va muloqotni to‘g‘ri tashkil etishga o‘rgatishlari kerak.

S. L. Rubinshteynga ko‘ra, o‘quv jarayonining o‘ziga xos xususiyatlariga murojaat qilish "o‘qituvchining refleksiv kompetensiyasi" toifasi bo‘yicha munosabatlarni ochib beradi. Ta’lim jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, S. L. Rubinshteynning fikriga ko‘ra, ikkita hodisaning o‘zaro bog‘liqligi (bir-birini to‘ldirish, o‘zaro bajarilishi) bular: talabaning rivojlanishi o‘qituvchining doimiy o‘zini o‘zi rivojlantirishini nazarda tutadi, bu talabaning rivojlanishining shartidir.

O‘qituvchining analitik pozitsiyasining (o‘ziga nisbatan) mavjudligi va yanada rivojlanishi, pedagogik refleksiya ko‘rsatkichi sifatida, o‘qituvchining muhim kompetensiyasining ko‘rsatkichi - o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyati, deb taxmin qilish kerak. Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar (islohotlar) nuqtai nazaridan ushbu komponentlar ta’lim sohasi vakillari uchun ustun bo‘lib, yangi madaniyat va ta’lim sifatini yaratishga yordam beradi [3, 187 b.].

Zamonaviy ta’lim bizda o‘qituvchilarda refleksivlik kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradigan faoliyat turlari va ularni o‘tkazish usullarini o‘quv jarayoniga kiritish imkoniyatini topish zaruriyatini uyg‘otadi. Bir so‘z bilan aytganda, ushbu kompetensiyaga zamonaviy o‘qituvchi haqli ravishda ega bo‘lishi kerak hamda boshqa xususiyatlarni rivojlanish jarayoniga uyg‘un ravishda moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy kompetensiya N. V. tadqiqotlarida ko‘rib chiqiladigan ko‘p qirrali sohadir. Kuzmina, A. K. Markova, S. V. Kondratieva, L. M. Mitina va boshqalar o‘qituvchining subyektiv xususiyatlari muammosini ko‘rib chiqqan bo‘lib, pirovardida pedagogik faoliyat samaradorligiga to‘xtalib o‘tganlar.

Natijalar. O‘qituvchi shaxsiyatining beshta kasbiy ahamiyatli sifatini o‘zida mujassam etgan pedagogik qobiliyatlar guruhlari (N.V. Kuzminaga ko‘ra) diqqatga sazovordir:

1) dizayn-gnostik qobiliyatlar, jumladan, pedagogik maqsadni belgilash va pedagogik fikrlash;

2) reflektiv-idrok etish qobiliyatlari, jumladan, pedagogik refleksiya, pedagogik takt va pedagogik yo‘nalish.

Bizga ma’lumki, refleksiv kompetensiyani rivojlantirish uchun o‘qituvchilik faoliyatida o‘z-o‘zini tuzatish va o‘z-o‘zini nazorat qilishni amalga oshirish, psixologik bilim darajasini yuqorilash kerak. O‘qituvchi (pedagog) o‘quvchilarni tarbiyalash va tarbiyalashdagi kamchiliklarni bartaraf etishga to‘sqinlik qilayotgan sabablarni o‘zida ko‘rishi, shaxsiy kompetensiyani rivojlantirishdagi kamchiliklardan xabardor bo‘lishi kerak. Yakovchuk T. G. birgalikda ijodiy faoliyat orqali o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi reflektiv o‘zaro ta’sirni rivojlantirishni taklif qiladi (birgalikda

ijod qilish o‘qituvchi talabalar bilan birgalikda ijodiy muammolarni yaratib, o‘quvchilarga ularni mustaqil ravishda hal qilish imkoniyatini beradigan o‘zaro ijodiy jarayondir) [4].

Muhokama. O‘qituvchi kasbiy mahoratining asosiy ko‘rsatkichlari - talabalar tomonidan unga bo‘lgan qiziqish darajasi, taqdim etilgan materialning ravshanligi, taqdimotning ishonchliligi, bilimlarning dolzarbligini tushunish darajasi, bilimlarning ilmiyligi va yangiligi, material va fanni o‘qitishning ijodiy xarakterlarini o‘z ichiga oladi.

Hozirgi zamon o‘qituvchisining oldida ta’lim tashkilotining ta’lim maydonida pedagogik texnika va malakalarni oshirish vazifasi turadi. Shuni ta’kidlash kerakki, tajribali o‘qituvchilarning hammasi ham yuqori darajadagi refleksiyaga ega emas, yangi pedagoglar ham har doim ham kasbiy refleksiya tushunchasini, uning ahamiyati va o‘qitishdagi o‘rnini o‘zlashtira olmaydi. Fikrlashning yuqori darajada rivojlanishi bilan o‘qituvchining o‘zini o‘zi baholashi o‘quv jarayonining boshqa ishtirokchilarining u haqidagi bahosiga mos keladi.

Maqolada Yakovchuk T.G. o‘qituvchining har bir darsi refleksivlik amaliyoti asosida o‘tkazishdagi shaxsiy tajribasi tahlil qildi va qayta ko‘rib chiqildi.

Uning fikricha, o‘qituvchi qanday fikrlasa hamda qanday axborot maydonida yashasa, uning organizmining holati va turmush tarzi ham xuddi shunday holatda bo‘ladi [4]. Refleksiv hamda mulohaza yurituvchi o‘qituvchi dars uchun material tanlashda nafaqat dastur talablariga e’tibor qaratadi, balki uning mazmunini o‘quvchining ko‘zi bilan baholaydi, uning o‘qitiladigan materialga munosabatini oldindan ko‘radi, uni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muvaffaqiyatsizliklar va xatolarni oldindan ko‘ra oladi.

Krasilnikovaning so‘zlariga ko‘ra V.G. “...o‘qituvchining kasbiy mulohazasi rivojlanishiga hissa qo‘shadigan individual-shaxsiy asos bu – uning o‘qituvchilik faoliyatida o‘z zimmasiga oladigan subyektiv shaxsiy javobgarlik pozitsiyasidir. Bu pozitsiya o‘qituvchining ehtiyoji va qaror qabul qilish qobiliyatida o‘z ifodasini topadi, uning qadriyatlari miqyosiga e’tibor qaratadi ..." [5].

O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasiga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, u ma’lum bir fikrlash turiga ega bo‘lishi, o‘qituvchilik faoliyati natijalarini tahlil qilishi, o‘qitish jarayonining o‘zi va uning o‘rni haqida fikr yuritish imkonini beradigan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi kerak.

Xutiz Z.M.ning asarida o‘qituvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun eng ko‘p qo‘llaniladigan metodik vositalar ko‘rsatilgan:

- olingan natijalarni keyingi tahlil qilish bilan professional ahamiyatga ega bo‘lgan vaziyatlarda o‘z harakatlarini (yoki hamkasblarining harakatlarini) kuzatish uchun asosiy dasturlar;
- professional hayotda ro‘y beradigan vaziyatlarni o‘z ichiga olgan yaqin kelajakda kerak bo‘ladigan analiz va fikrlash predmetiga aylanadigan kundalik qaydlarni yuritish;
- o‘qituvchining dars jarayonini, uni baholashini (yoki o‘z-o‘zini baholashni) va muhokamasini videoga olish;

- miniatyuradagi kasbiy o‘yin bo‘lgan o‘qitishning mashhur faol usullaridan biri - keys usuli (inglizchadan case- vaziyat, masala). Ushbu usul, qoida tariqasida, kasbiy hayotdagi haqiqiy voqeaga asoslanadi va talabalarni taklif qilingan muammoning yechimini faol ravishda izlashini, so‘ngra barcha ishtirokchilarning birgalikdagi harakatlarining jarayoni va natijasini muhokama qilishini o‘z ichiga oladi [6].

O‘qituvchiga pedagogik fakt va hodisalarni chuqurroq tushuntirish, ular o‘rtasida sabab-natija munosabatlarini o‘rnatish, pedagogik hodisalarning chuqurligiga kirib borish uchun bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga imkon beradigan shunday kompetensiyani rivojlantirish kerak. Bu darsni o‘tkazishning turli shakllari, texnikasi va usullari bilan birgalikda ta’lim sifatini oshirishda ijobiy rol o‘ynashi kerak.

Qo‘llaniladigan har bir o‘quv yoki ilmiy material pedagogik amaliyotga mos kelishi va o‘ziga xos mavzu va tushunchalarda nazariy jihatdan tushunarli bo‘lishi kerak. Uslubiy mazmun shunday taqdim etilishi kerakki, unda uning tarkibiy qismlari va ilmiy asoslari aloqasi paydo bo‘lishi lozim.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi usullar qo‘llaniladi: o‘quv jarayonini kuzatish; talabalar va o‘qituvchilarni sinovdan o‘tkazish va so‘roq qilish; olingan ma’lumotlarni solishtirish, tahlil qilish va sintez qilish.

Amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlar va amaliy usullar kelajakdagi kasbiy ta’lim jarayoniga kompetensiyaga asoslangan yondashuvning tanlangan konsepsiyasining to‘g‘riligini tasdiqlaydi. Refleksiv kompetensiyani rivojlantirishning asosiy sharti o‘qituvchining o‘z xatti-harakatlarini kuzatish va tahlil qilish va bu xatti-harakatlarning oqibatlarini tushunish qobiliyatidir. Bunda u o‘quvchilar tomonidan o‘ziga qo‘yilayotgan ortib borayotgan talablarga munosib baho bera oladi, psixologik to‘siq paydo bo‘lishining oldini oladi, xatti-harakati va faoliyatini to‘g‘irlaydi [7, 250 b].

1-jadval. Ta’lim jarayonida pedagogik aks ettirish funksiyalari

Funksiyalar	Mexanizmlar	Bajarish usullari
Tashkiliy	O‘zaro hamkorlikni samarali tashkil etish	Kasbiy-pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va sifatini baholash zaruriyatini shakllantirish.
Kommunikativ	Ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida samarali muloqot qilish shartlarini bajarish	Pedagogik xarakter va irodani rivojlantirish. Kasbiy va pedagogik munosabatlarda hamkorlik va birgalikda ijod qilish madaniyatini shakllantirish.
Ma’no va ijodiy	Faoliyat va o‘zaro ta’sirning mazmunini shakllantirish	Shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini batafsil ko‘rsatish va tashkil

		etilgan kasbiy va pedagogik faoliyatning xususiyatlarini ko‘rsatish.
Motivatsion	O‘quv jarayoni ishtirokchilarining birgalikdagi faoliyatining natijaga yo‘naltirilganligini aniqlash.	O‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini o‘zi anglash uchun maqbul imkoniyatlarni izlash modelida motivatsiya, ehtiyojlar, axloqiy va axloqiy fazilatlar, qadriyatlar va malakalarni rivojlantirish.
Korreksion	O‘zaro munosabatlar va faoliyatdagi o‘zgarishlarni rag‘batlantirish.	Ehtiyojlarni moslashtirish va o‘qituvchining kasbiy rivojlanishining shaxsiy resurslarini optimallashtirish.

Xulosa. Berilgan barcha fikrlarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, XXI asr pedagogining oldida bir qancha talablar turibdiki, bular o‘qituvchining faqatgina bilimi emas balki ko‘nikma va malaka hamda boshqa elementlarini o‘z ichiga oladi. Xususan, zamonaviy o‘qituvchilar turli xil darajaga ega bo‘lgan o‘quvchilarga bilim berishi uchun turli xil muloqot usullarini o‘zlarida jamlashlari lozim. Talabalarning individual ehtiyojlarini aniqlash, o‘qituvchilarni ularning o‘qitish uslublari haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishiga yordam beradi va kerak bo‘lganda darslarga turli elementlarni kiritishga yordam beradi. Shubhasiz aytish mumkinki, bunday vazifalarni bajarishda o‘qituvchilarga qo‘shimcha ravishda kompetensiyalarga egalik qilish kerak bo‘ladi; xususan, refleksivlik kompetensiyasi shu jumlasidandir. Shu o‘rinda aytaolamanki, reflektiv kompetent pedagogning talabalar bilan ishlash jarayoni samarali hamda oson kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kozyreva O. A., Kozyrev N. A. Kasbiy pedagogik tayyorgarlik sifatini aniqlash, optimallashtirish va tadqiq etish modelidagi pedagogik aks ettirish // Psixologiya, sotsiologiya va pedagogika. – 2015. - 8-son.
URL:http://psychology.snauka.ru/2015/08/5658

2. Psixologik lug‘at / Ed. V. V. Davydova, A. V. Zinchenko va boshqalar - M.: Pedagogika, 1983. – 448 b.

3. Rubinshteyn S. L. Umumiy psixologiya asoslari. - Sankt-Peterburg: "Peter" nashriyoti, 2000. -- 685 b.

4. Yakovchuk T.G. Pedagogik aks ettirish: kasbiy o‘sish haqida o‘qituvchi // Psixologiya, sotsiologiya va pedagogika. - 2013. - 4-son.

URL:http://psychology.snauka.ru/2013/04/2041

5. Krasilnikova V. G. Pedagogik aks ettirish va o‘qituvchi shaxsining kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlari tarkibida nazorat o‘rni // Psixologiya va pedagogika: Amaliy qo‘llash metodologiyasi va muammolari. – 2013. – No 30. -- 56-60 b.

6. Xutiz Z. M. O‘qituvchi faoliyatidagi pedagogik aks ettirish // FAN ZAMANI. – 2015. – No 3(15). -- 560-564 b.

7. Zimnyaya I. A. Pedagogik psixologiya: darslik. – M.: Logos, 2001. – 384 b.

TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA PORTRET ISHLASHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI

Yusupova Shaxista Alimjanovna, Guliston davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar va san'atshunoslik" kafedrasi o'qituvchisi,
Boykuziyev Beksulton Akmaljon o'g'li, Guliston davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar va san'atshunoslik fanlar" kafedrasi 32-23 guruh talabasi,
e-mail: yusupovashoxista32@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy san'at mashg'ulotlarining o'quvchilar uchun ahamiyati, tasviriy san'atni tasvirlashda geometrik shakllarining o'rni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars mobaynida qo'llanilishi va uning ta'lim sifatini oshirish jarayonidagi faoliyati. Portret janrini ishlashda plastik anatomiya qonuniyatlari haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, maqsad, dars, ijodkorlik, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim, tarbiya, zamonaviy, an'anaviy, pedagogik texnologiya, geometrik, rangtasvir, qalamtasvir, muskul, kompozitsiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ПОРТРЕТНОЙ РАБОТЫ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Аннотация. В данной статье рассматривается значение занятий изобразительным искусством для учащихся, роль геометрических фигур в описании изобразительного искусства, использование современных педагогических технологий на уроке и его активность в процессе повышения качества образования. Даны сведения о законах пластической анатомии в творчестве портретного жанра.

